

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**PEDAGOGIKA ASOSLARI
moduli bo‘yicha**

O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

Oliy ma’lumotli sportchilar uchun sport psixologiyasi bo‘yicha qayta tayyorlash
o‘quv kursi uchun

Toshkent – 2023 yil

Mazkur oliy ma'lumotli sportchilar uchun "Sport psixologiyasi" bo'yicha qayta tayyorlash maxsus o'quv kursi modulning o'quv-uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan 2019-yil 16 - aprelda tasdiqlangan namunaviy o'quv reja va o'quv dasturga muvofiq ishchi dastur asosida ishlab chiqilgan

Tuzuvchi:

A. Akmalov JTSMQTMOI Pedagogika va psixologiya ” kafedrasi
v.b.professori., p.f.n

Taqrizchilar:

F.Xo'jayev JTSMQTMOI "Sport mashg'uloti nazariyasi va uslubiyoti"
kafedrasi professori., p.f.n

Z.Dexkambaeva - TDPU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi
dotsent , p.f.n.

Ushbu o'quv-uslubiy majmua "Pedagogika va psixologiya" kafedrasining 2023 yil 27-maydagi 5-sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va institut ilmiy kengashining 20_yil "___" _____da o'tkazilgan yig'ilish ___-sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri

MODULNING MAQSADI VA VAZIFALARI

J.Pulatov

“Pedagogika asoslari” modulining maqsadi: Pedagogika fanining umumiy va ilmiy-metodologik asoslari, pedagogika nazariyasining jamiyat va shaxs taraqqiyotidagi o‘rni. Didaktika ta’lim nazariyasi; ta’lim jarayonini tashkil etish shakllari va vositalari. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. Tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni, maqsadi, vazifalari, o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlar, qoidalari, tamoyillari (prinsiplari). Tarbiyaning umumiy metodlari; tarbiya turlari (shakllari)ga umumiy tasnif. Tarbiya bilan o‘z-o‘zini tarbiyalash va shaxsni qayta tarbiyalashning o‘zaro bog‘liqligini pedagogik-psixologik asoslari. Pedagogik mahorat madaniyati va pedagogik muloqot madaniyati asoslari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar hamda shaxsiy fazilatlarni takomillashtirishdan iborat.

“Pedagogika asoslari” modulining vazifalari:

- pedagogikaning predmeti, maqsadi, vazifalari, tarkibiy tuzilmasi va asosiy tarmoqlari, pedagogikaning asosiy tushunchalar mohiyatini ochib berish;
- ta’lim jarayonida pedagogikaning fanlar tizimida tutgan o‘rni va boshqa fanlar bilan aloqadorligini izohlash;
- tinglovchilarda ta’lim-tarbiya qonuniyatlar va prinsiplari asosida yoshlarga ta’lim – tarbiya jarayonini amalga oshirishning ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;
- yosh sportchi shaxsining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar: irsiyat, muhit, tarbiya. Yosh sportchining shakllanishida irsiyatning ahamiyati. Ichki va tashqi muhitning Bola yoshlarga ta’siri;
- tinglovchilarda sport mashg‘ulotlariga ta’lim-tarbiya metodlari va ularining turlarini qo‘llash orqali bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish orqali ularning kasbiy mahoratini rivojlantirish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Pedagogika asoslari” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- sport psixologining pedagogikaga oid asosiy tushunchalari, tarkibiy qismlari, funksiyalari;
- ta’lim jarayonida pedagogikaning fanlar tizimida tutgan o‘rni va boshqa fanlar bilan aloqadorligini;
- ta’lim-tarbiya qonuniyatlar va prinsiplari asosida yoshlarga ta’lim – tarbiya jarayonini amalga oshirishning ko‘nikma va malakalarini;
- sport mashg‘ulotlariga ta’lim-tarbiya metodlari va ularining turlarini qo‘llash orqali bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish orqali ularning kasbiy mahoratini rivojlantirish yo‘llariga ega bo‘lishi lozim.

“Pedagogika asoslari” kursini o‘zlashtirish jarayonida bilimlarga ega bo‘lishi:

Tinglovchi:

- pedagogikaning predmeti, maqsadi, vazifalari, tarkibiy tuzilmasi va asosiy tarmoqlari, pedagogikaning asosiy tushunchalar mohiyatini;
- pedagogikaning fanlar tizimida tutgan o‘rni va boshqa fanlar bilan aloqadorligi;

- ta'lim-tarbiya qonuniyatlari va prinsiplari asosida yoshlarga ta'lim – tarbiya jarayonini amalga oshirishi;
- sport mashg‘ulotlariga ta'lim-tarbiya metodlari va ularining turlari haqidagi yangi bilimlarni shakllantirish.

“Pedagogika asoslari” modulini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini egallashi:

Tinglovchi:

- O‘zbekiston va rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan tar’lim-tarbiya ishlarini qiyoslay olish ko‘nikmalarini shakllanishi;
- ta’lim maqsadi va vazifalari, tashkil etish shakllari va ularning turlarini aniqlash, tahlil etish, baholash va umumlashtirish;
- sport mashg‘ulotlariga ta'lim-tarbiya metodlari va ularining turlarini qo‘llash kabi ko‘nikmalargaega bo‘ladi.

“Pedagogika asoslari”moduli bo‘yicha malakalarini egallashi:

Tinglovchi:

- zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish va tashkil etish;
- sportda ta’lim va tarbiya jarayonlarini o‘zviyligini ta’minlash;
- ta’limiy-tarbiyaviy maslaxatlar berish;
- sport psixologining pedagogik kompetensiyasi va mahoratini, pedagogik texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga samarali tatbiq etish malakalarini egallashi lozim
- motivlar mashg‘ulot faoliyatni samaradorligini oshiruvchi vosita ekanligi haqida malakalarga ega bo‘lish kabi kompetensiyalarni egallashi lozim.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“**Pedagogika asoslari**” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidegi umumiyligi tayyorlarlik, umumkasbiy tayyorlarlik va mutaxassislik bo‘yicha tayyorlarlik blokidagi o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda tinglovchilarining kasbiy-pedagogik tayyorlarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning sport ta’limidagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar sport psixologining pedagogik kompetensiyasi va mahoratini o‘zlashtirish, joriy etish va amaliyotda qo‘llashga doir umumiyligi va kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar va pedagogik mahoratini oshiradilar.

Modul buyicha soatlar taqsimoti:

No	Mavzular	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soatlari
----	----------	--

		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi			
			Жами	Nazariy	Amaliy	Mustaqil tayyorgarlik
1	Umumiy pedagogikaning ob’ekti, maqsadi, vazifalari, tarkibiy tuzilmasi va tarmoqlari.	2	2	2		
2	Umumiy pedagogikani asosiy tushunchalari va ularning mohiyati, pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.	2	2	2		
3	O‘quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi va uni rivojlantiruvchi omillar.	2	2	2		
4	Didaktika – ta’lim-tarbiya nazariyasi ekanligi. Ta’lim qonuniyatlari va prinsiplari.	2	2	2		
5	Ta’lim-tarbiya jarayoni va uning asosiy tarkibiy qismlari.	2	2	2		
6	Ta’lim maqsadi va mazmuni	2	2	2		
7	Ta’limni tashkil etish shakllari. Dars ta’limning asosiy shakli va uning turlari.	2	2		2	
8	Ta’lim-tarbiya metodlari va ularining turlari.	2	2		2	
9	Tarbiya turlari va ularning mohiyati	2	2		2	
10	Xalq pedagogikasi, sharq ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari	2	2		2	
11	Xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiyaga oid tajribalar	2	2		2	
12	Halq og‘zaki ijodi va Sharq mutafakkirlarining asarlarida pedagogik qarashlar	2				2
13	Ilg‘or xorijiy davlatlarida amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya ishlari, ta’lim – tarbiya jarayoni va uning asosiy tarkibiy qismlari, ta’limni tashkil etish shakllari, ta’lim- tarbiya metodlari.	2				2
	Jami:	26	22	12	10	4

Nazariy mashg‘ulotlar mazmuni

1- Mavzu. Umumiy pedagogikaning ob’ekti, maqsadi, vazifalari, tarkibiy tuzilmasi va tarmoqlari.

Reja:

- 1.Umumiy pedagogikaning ob’ekti, maqsadi, vazifalari.
- 2.Pedagogikaning tarkibiy tuzilmasi va tarmoqlari.

Ushbu mavzu bo‘yicha tinglovchilarga pedagogikaning ob’ekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, tarkibiy tuzilmasi va pedagogikaning tarmoqlari: oila pedagogikasi, maktab pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi, sport pedagogikasi, ishlab chiqarish pedagogikasi, kasb-hunar pedagogikasi kabilarni mohiyati bayon etiladi, mazmuni tushuntiriladi.

2- Mavzu. Umumiy pedagogikani asosiy tushunchalari va ularning mohiyati, pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Reja:

- 1.Umumiy pedagogikani asosiy tushunchalari va ularning mohiyati.
- 2.Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Ushbu mavzu bo‘yicha tinglovchilarga umumiy pedagogikani asosiy tushunchalari: ta’lim, tarbiya, ma’lumot, bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar kabilarning mohiyati. Pedagogikaning fanlar tizimida tutgan o‘rni va boshqa fanlar bilan aloqadorligi: falsafa, etika, estetika, anatomiya, fiziologiya, gigiena va pediatriya kabilarni mohiyati bayon etiladi, mazmuni tushuntiriladi.

3- Mavzu. O‘quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi va uni rivojlanishiga ta’sir et uvchi omillar.

Reja:

1. Pedagog-psixolog kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rni.
- 2.O‘quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi va uni rivojlantiruvchi omillar.

Ushbu mavzu bo‘yicha tinglovchilarga pedagog-psixolog kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rni, shaxsiy xususiyatlari; psixologik – pedagogik tayyorgarligi, munosibligi (kompitentligi) va boshqalar. O‘quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi va uni rivojlantiruvchi omillari bayon etiladi.

4- Mavzu Didaktika – ta’lim-tarbiya nazariyasi ekanligi. Ta’lim qonuniyatları va prinsipları.

Reja:

- 1.Didaktika – ta’lim-tarbiya nazariyasi ekanligi.
2. Ta’lim-tarbiya qonuniyatları va prinsipları.
- 3.Ta’lim, tarbiya va rivojlanishning birligi.

Bu mavzuda tinglovchilarga didaktika – ta’lim-tarbiya nazariyasi ekanligi, uning asoschilari va hissa qo’shgan olimlar, ta’lim, tarbiya va rivojlanishning birligi, ta’lim-tarbiya qonuniyatları va prinsiplari: bilish-ta’lim jarayonining metodologik asosi; didaktik prinsiplar: ilmiylik; tizimlilik va izchillik; ta’limning tarbiyalovchilik xarakteri; nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi; ko‘rsatmalilik; onglilik va mustaqillik; faollik, bilim va ko‘nikma, malakalarni puxta o‘zlashtirish; tahsil oluvchilar yoshi va individual xususiyatlariga mosligi; kabi didaktik prinsiplarning mohiyati bayon qilinadi.

5- Mavzu Ta’lim-tarbiya jarayoni va uning asosiy tarkibiy qismlari.

Reja:

- 1.Ta’lim-tarbiya jarayoni yaxlit tizim ekanligi.
- 2.Ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy tarkibiy qismlari.

Ushbu mavzu bo‘yicha tinglovchilarga ta’lim-tarbiya jarayoni yaxlit tizim ekanligi, ta’lim va tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy tarkibiy qismlari: ta’lim jarayoni; ta’lim jarayonida o‘quv-bilish faoliyati; shaxs kamoloti kabilarni mohiyati bayon etiladi, mazmuni tushuntiriladi.

6- Mavzu Ta’lim maqsadi va mazmuni.

Reja:

- 1.Ta’lim maqsadlari.
- 2.Ta’lim mazmunini shakllantirish mezonlari.

Ushbu mavzu bo‘yicha tinglovchilarga ta’lim maqsadlari: birinchi, ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi o‘zlashtirish darajalari; ta’lim mazmuni, uni shakllantirish mezonlari kabilarni mohiyati bayon etiladi, mazmuni tushuntiriladi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

7- Mavzu Ta’limni tashkil etish shakllari. Dars ta’limning asosiy shakli va uning turlari.

Reja:

- 1.Ta’limni tashkil etish shakllari.
2. Dars ta’limning asosiy shakli ekanligi.
- 3.Darsning turlari va ularga qo‘yiladigan talablar.

Ushbu mavzu bo‘yicha tinglovchilarga ta’limni tashkil etish shakllari: o‘quvchilar soniga, o‘tiladigan joyiga va ajratilgan vaqtiga qarab ta’limni tashkil etish shakllari; mashg‘ulotlarning turlari, shu jumladan seminar va amaliy – tajriba ishlar shaklidagi mashg‘ulotlar, dars ta’limning asosiy shakli ekanligi, darsning

turlari, tarkibiy tuzilmasi va ularga qo‘yiladigan talablar: o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish kabilarni mohiyati bayon etiladi, mazmuni tushuntiriladi.

8- Mavzu Ta’lim-tarbiya metodlari va ularining turlari.

Reja:

- 1.Ta’lim-tarbiya metodlari haqida tushuncha
- 2.Ta’lim-tarbiya metodlarini tanlashga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.
- 3.Ta’lim-tarbiya metodlarining turlari.

Ushbu mavzu bo‘yicha tinglovchilarga ta’lim-tarbiya metodlari haqida tushuncha, uning ikki yoqlama xarakterga ega ekanligi, ta’lim-tarbiya metodlarini tanlashga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, ta’lim-tarbiya metodlari, ta’lim-tarbiya metodlarining turlari: og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy, ijtimoiy xulqni tarbiyalash, rag‘bat va jazo metodlar kabilarni mohiyati bayon etiladi, mazmuni tushuntiriladi.

9- Mavzu Tarbiya turlari va ularning mohiyati

Reja:

- 1.Tarbiya turlari va ularning mohiyati.
- 2.Sport tarbiyasi kasbiy ta’lim- tarbiya asosi ekanligi.

Ushbu mavzu bo‘yicha tinglovchilarga tarbiya nazariyasi, tarbiya turlari va ularning mohiyati, sport tarbiyasi kasbiy ta’lim- tarbiya asosi ekanligi kabilarning mohiyati bayon etiladi, mazmuni tushuntiriladi.

10- Mavzu. Xalq pedagogikasi, sharq ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari.

Reja:

- 1.Xalq pedagogikasi, qadimgi xalqlar yodgorliklarida ta’lim-tarbiya masalalari.
- 2.Sharq ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari.

Ushbu mavzu bo‘yicha tinglovchilarga xalq pedagogikasi, qadimgi xalqlar yodgorliklarida ta’lim-tarbiya masalalari: xalq og‘zaki ijodiyoti, xalq amaliy san’ati, ijtimoiy – tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo‘lgani, rivojlanib qadriyat darajasiga ko‘tarilgan an’analar, urf – odatlar, rasm- rusmlar, amaliy faoliyatdagi tajribalar; xalq pedagogikasiga xos xususiyatlar: insonparvarlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, o‘zaro hamdardlik, ochiq ko‘ngillilik, saxovatlilik, poklik, to‘g‘ri so‘zlik, yaxshi qo‘sningchilik, tinchlik sevarlik, vatanparvarlik, baynalminallik fazilatlari ekanligi, Sharq ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari kabilarning mohiyati bayon etiladi, mazmuni tushuntiriladi.

11- Mavzu. Xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiyaga oid tajribalar.

Reja:

- 1.Qadimgi mamlakatlarda: Yunoniston, Rimda ta’lim-tarbiya.

- 2.Xitoy mutafakkirlarining pedagogik qarashlari.
- 3.Xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiyaga oid tajribalar.
- 4.Mustaqil O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiyaga oid tajribalar.

Ushbu mavzu bo‘yicha tinglovchilarga Qadimgi mamlakatlarda: Yunoniston, Rimda ta’lim-tarbiya maktab. Ta’lim – tarbiya (pedagogika) metodika qoidalarining ishlanishida Mark Fabiy Kvintilianning g‘oyalari. Qadimgi Yunonistonda Demokrit, Sokrat, Platon, Aristotelning ta’lim- tarbiya haqidagi falsafiy fikrlari. Qadimgi Xitoyda falsafiy tafakkur. Konfutsining ta’limoti axloqiy – siyosiy ekani. Yevropa pedagog olimlari: Jan – Jak Russo va Iogan Genrix Pestalossiy, Yan Amos Komenskiy va K.D. Ushinskiy va boshqalarning pedagogik g‘oyalari; xorijiy mamlakatlarda: AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Fransiya, Germaniya va boshqa davlatlarida amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiyaga oid tajribalar. Mustaqil O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiyaga oid tajribalar kabilarning mohiyati bayon etiladi, mazmuni tushuntiriladi.

Dasturning axborot-metodik ta’minoti

Modulni o‘qitish jarayonida ishlab chiqilgan o‘quv-metodik materiallar, tegishli soha bo‘yicha ilmiy журнallar, Internet resurslari, multimedya mahsulotlari va boshqa elektron va qog‘oz variantdagi manbalardan foydalilaniladi.

NAZARIY MATERIALLAR

MA’RUZA MATNLARI

1- Mavzu. Umumiy pedagogikaning ob’ekti, maqsadi, vazifalari, tarkibiy tuzilmasi va tarmoqlari.

Reja:

- 1.Umumiy pedagogikaning ob’ekti, maqsadi, vazifalari.
- 2.Pedagogikaning tarkibiy tuzilmasi va tarmoqlari.

1.Umumiy pedagogikaning ob’ekti, maqsadi, vazifalari.

Ta’lim-tarbiya berish deganda, kimnidir maxsus bir xonaga o’tqazib, faqat pand - nasixat berishni emas, balki o‘yin davomida, uy yumushlari jarayonida, ta’lim va ilm o’rgatish vaqtida, hayot va turmush saboqlarini qiyosiy yo‘sinda tushuntirishni, qolaversa, shaxsiy o‘rnak ko‘rsatish odatini tushunmoq va bilmoq lozim.

Asrimizning boshlarida Abdulla Avloniy “Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot» yo xalokat, yo saodat - yo falokat masalasidur”- degan edi. Darhaqiqat, tarbiyani sotsial (ijtimoiy) ma’noda olib qaralganda butun tuzum va atrof muhitning insonga tarbiyaviy ta’siri tushuniladi.

Pedagogik ma’nodagi tarbiya deganda umuman ta’lim– tarbiya tizimida yoki alohida olingan bir o‘quv–tarbiya muassasasida amalga oshiriladigan, ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy jarayon tushuniladi. Juz’iy pedagogik ma’nodagi tarbiya deganda maxsus tarbiyaviy tadbirlar, sifatlar va dunyoqarashni shakllantirish bilan bog‘lik jarayon tushuniladi. Yanada torroq ma’nodagi tarbiya ma’lum tarbiyaviy masalani yechish bilan bog‘liq bo‘lgan ahloqiy sifatlar, did va estetik tushunchalarni shakllantirishni anglatadi.

Keng pedagogik ma’nodagi tarbiya ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, jamiyat tomonidan tayyorlangan, ajratilgan kishilar yoxud o‘qituvchilar yoki tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi va turli xildagi o‘quv mashg‘ulotlari, maxsus o‘tkaziladigan bir qator tarbiyaviy tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Ko‘pchilik olimu fuzalolar tarbiya haqidagi fikrlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, ular tarbiyani faqat bola uchunligini ta’kidlaydilar. Bizningcha, bu ancha tor tushunchadir. Chunonchi, tarbiyaga faqat bolalar emas, balki kattalar ham muxtojdirlar.

Pedagogika insonni go‘dakligidan boshlab to umrining oxirigacha hayot va turmush odobiga o‘rgatuvchi va shu narsalarni tahlil hamda tadqiq etuvchi fandir. Tarbiya va tarbiyashunoslik haqidagi bu ta’rif, ma’no va mazmuniga odamlarning butun umri davomidagi xulq–atvori, odob–axloqi, milliy an’analarga sadoqati va

shularga tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchining to‘la amal qilishi, milliy qadriyat, ma’naviyat va ma’rifatga hurmat, iymon, vijdon va shu kabi insoniy fazilatlari singgan.

Demak, pedagogikaning predmeti -“**Pedagogika**” atamasi yunoncha so‘zdan tarjima qilinganda “**bola yetaklamoq**” degan ma’noni anglatsa, uni quyidagicha talqin qilsa ham bo‘ladi:

tarbiya haqidagi fan;

o‘sib kelayotgan yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish;

umuman insonni tarbiyalash haqidagi fan degan ma’nolarni ham bildiradi. Uning ob’ekti asosan bola (o‘quvchilar) hisoblanib, predmeti esa ularga berilayotgan ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotidir. Ya’ni, shaxsni rivojlantirish va ta’lim-tarbiya qonuniyatlarini o‘rganib, amaliy tavsiyalar beruvchi fan.

2.Pedagogikaning tarkibiy tuzilmasi va tarmoqlari.

Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning sotsiologiya, etika (axloq-odob), estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga egadir.

Pedagogika ijtimoiy fanlardan: iqtisodiyot, psixologiya va fiziologiyalar bilan ham bevosita va bilvosita bog‘liqdir.

Insonning aqliy rivojlanishi qirralarini, jihatlarini o‘rganadigan boshqa fanlardan farqi o‘laroq, pedagogika inson shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug‘ullanadi.

Bugungi kunda pedagogika fani ko‘p tarmoqli fan sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, pedagogika fanlari tizimiga etnopedagogika, mакtabgacha ta’lim pedagogikasi, kasbiy ta’lim pedagogikasi, oliy mакtab pedagogikasi, axloq tuzatish va mehnat pedagogikasi, jismoniy kamolot pedagogikasi, harbiy pedagogika, pedagogik mahorat, maxsus pedagogika: kar soqovlar (surdo) pedagogikasi, ko‘rlar (tiflo) pedagogikasi, aqliy jihatdan orqada qolgan (oligofreno) pedagogika, logopedagogikalar kiradi.

Mustaqil O‘zbekistonda milliy pedagogika fani bevosita iqtisod fani bilan bog‘lanib, bozor iqtisodiyotiga o‘tish muammolarini, iqtisodiy tarbiya masalalarini uzviylik bilan amalga oshiradi.

Umumiy pedagogika ta’lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariiga qarab mazmunan o‘zgarib borishini o‘rgatadi, tarbiyaning tarkibiy qismlari va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ochib beradi. Umumiy hollarda, pedagogika fanining **maqsadi** – o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol (komil) inson va kasb-hunarli qilib tarbiyalash uchun ta’lim-tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlarini va amalga oshirish yo‘llarini o‘rgatishni ko‘zda tutadi.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarishga e’tibor qaratiladi:

1. Ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish.
2. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash.
3. Ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lismiz tizimi tajribasini o'rganish asosida uzlusiz ta'lismiz tizimini takomillashtirish.
4. Ta'lismiz muassasalari hamda, ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash.
5. Ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish.
6. Pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta'lism-tarbiya usullari bilan quollantirish.
7. Ta'lism-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish.
8. O'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish.
9. Oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihat - uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lism nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (ta'lism nazariyasi, yunoncha didaktikos «o'rgatuvchi», didasko «o'rganuvchi» ta'larning nazariy jihatlari, ta'lism jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlar, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyatlar, ta'larning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lism jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.

Nazorat savollari

1. Pedagogikaning predmeti, maqsadi va vazifalarini bayon eting.
2. Pedagogikaning tarkibiy tuzilmasi va asosiy tarmoqlarini sanab ko'rsating hamda mohiyatini aytib bering.
3. Pedagogikaning fanlar tizimida tutgan o'rni va boshqa fanlar bilan aloqadorligi ko'rsating.
4. Asosiy pedagogik tushunchalarning mazmuni va mohiyatini bayon eting.

2-Mavzu. Umumiy pedagogikani asosiy tushunchalari va ularning mohiyati, pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Reja:

- 1.Umumiy pedagogikani asosiy tushunchalari va ularning mohiyati.
- 2.Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

1.Umumiy pedagogikani asosiy tushunchalari va ularning mohiyati.

Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlar, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof

etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish.

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim – o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka –muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

2.Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Pedagogikaning falsafa, etika , estetika, bolalar anatomiysi, fizologiyasi, gigienasi va pediatriya hamda boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Pedagogikaning tarmoqlari: oila pedagogikasi, maktab pedagogikasi, oliy mакtab pedagogikasi, sport pedagogikasi, ishlab chiqarish pedagogikasi, kasb-hunar pedagogikasi va boshqalar.

Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga

tayaniladi. Ana shu nuqtai nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'lilotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.
2. Iqtisod – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.
3. Sotsiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.
4. Etika- shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliv insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rinn tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rinn tutadi.
5. Estetika – shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.
6. Fiziologiya- o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi.
7. Gigiena – o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.
8. Psixologiya – shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.
9. Tarix – pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g'oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi.
10. Madaniyatshunoslik – o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.
11. Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

Pedagogika fani insonda jahon tajribalarida sinalgan tizim bo'lgan bozor munosabatlarini shakllantirish, milliy meros, an'analar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning boy manbalari bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy tushunchalar haqida

bilim, malaka hosil qilishda boshqa fanlar qatori o‘z o‘rni va aloqadorligi bor. Pedagogika birinchi navbatda falsafa bilan mushtarak rivojlanib kelgan. Chunki falsafadan ajralib chiqqan pedagogika insoniy jamiyat va tabiat rivojlanishining umumiy qonunlaridan ilmiy manba sifatida foydalanadi.

Bugungi kunda bir qator umumiy masalalar ishlab chiqilganki, u masala falsafada ham, pedagogikada ham barobar mavjuddir. Bular jumlasiga, tarbiya bilan boshqa ijtimoiy hodisalar orasidagi o‘zaro aloqalar: dunyoqarashni, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani shakllantirish masalalari; shaxs va jamoa munosabatlari; ta’lim jarayonining mohiyatini tushunish hamda bilishning diallektik nazariyasini ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan geneseologik masalalar va boshqa muammolar kiradi.

3-Mavzu. O‘quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi va uni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.

Reja:

1. Pedagog-psixolog kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rni.
- 2.O‘quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi va uni rivojlantiruvchi omillar.

1. Pedagog-psixolog kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rni.

O‘zbekiston Respublikasida pedagog kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘ymoqda. Tarbiyachi – ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘sirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo‘nalishi bo‘yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.

Insoniyat paydo bo‘lgandan boshlab, odamlar u yoki bu shakl va mazmunda o‘z farzandlarining ta’lim- tarbiyasi bilan shug‘ullanganlar. Ibtidoiy jamoa davrida bu jarayon ba’zan ongli, gohida esa ongsiz ravishda kechgan bo‘lishi mumkin. Lekin, qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, tarbiya usullari muttasil davom etaverган. Ular davrlar o‘tishi, hayot va turmushning murakkablashishi natijasida tobora chuqurroq va keng ma’no kasb etib borgan. Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

2. O‘quvchi shaxsining ijtimoiylashuvi va uni rivojlantiruvchi omillar.

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak.

“Individ” nima? Bola ma’lum yoshta qadar “individ” sanaladi. Individ (lotincha “individuum” so‘zidan olingan bo‘lib, «bo‘linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma’nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

Individuallik esa shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, uning namoyon bo‘lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o‘rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo‘lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.

Individual yondashuv o‘quvchilarning aqliy qobiliyatları, bilishga bo‘lgan qiziqish hamda iste’dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarining iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta’riflanadi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular ta’sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanishning o‘zi nima?

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskinining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni o‘rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta’limotga asoslanadi. Ayni vaqtida inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatları ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta’sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta’sir etadi.

Inson butun umri davomida o‘zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo‘lsa, u jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘ziga munosib o‘rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta’siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to‘g‘ri ko‘rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal etish uchun uning xulqiga ta’sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta’sir etishi uchun o‘sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o‘rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘ymoqda. Chunonchi, bu borada O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etgan: «Tarbiyachi – ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘stirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak».

4-Mavzu Didaktika – ta’lim-tarbiya nazariyasi ekanligi. Ta’lim qonuniyatlari va prinsiplari.

Reja:

- 1.Didaktika – ta’lim-tarbiya nazariyasi ekanligi.
2. Ta’lim-tarbiya qonuniyatlari va prinsiplari.
- 3.Ta’lim, tarbiya va rivojlanishning birligi.

1.Didaktika – ta’lim-tarbiya nazariyasi ekanligi.

Didaktika (ta’lim nazariyasi): yunoncha «didaktikos» “o‘rgatuvchi”, «didasko» esa – “o‘rganuvchi” ma’nosini bildiradi) ta’limning nazariy jihatlari (ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va hokazo muammolar)ni o‘rganuvchi fan.

O‘qish, o‘rganishi ta’lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ta’limga psixologiya nuqtai nazaridan yondashilsa, ushbu munosabatning ustuvorligiga

shubha qolmaydi. Biroq, ta'limga pedagogik, ya'ni, ijtimoiy tajribani berish, o'rgatish nuqtai nazaridan qaralsa faoliyat uchun asosiy sanaluvchi munosabat – ikki shaxs (o'quvchi va o'qituvchi) o'rtasidagi munosabatlar yetakchi o'rin egallashi lozim ekanligi anglanadi.

Didaktikaga ta'limning mazmunli va jarayonli jihatlarini birgalikda o'rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta'limni faqatgina o'rganish ob'ekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish ob'ekti sifatida qaraydi.

2. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari.

O'quv jarayonida amal qiluvchi barcha qonuniyatlar umumiylari va xususiy tarziga ikki guruhgaga ajratiladi. Amal qilinishiga ko'ra yaxlit didaktik tizimni qamrab oladigan qonuniyatlar umumiylari, amal qilinishiga ko'ra faqat alohida tarkibiy qismlariga taalluqli bo'lgan qonuniyatlar esa xususiy (aniq) deb ataladi.

I.P.Podlasiy ta'lim jarayonining quyidagi umumiy qonuniyatlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Ta'lim maqsadi quyidagilarga bog'liq: jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi, jamiyatning talablari va imkoniyatlari hamda pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari darajasi.
2. Ta'lim mazmuni quyidagilarga bog'liq: ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati, o'quvchilarining yoshi imkoniyatlari, ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi, shuningdek, o'quv yurtining moddiy-texnik va iqtisodiy imkoniyatlari.
3. Ta'lim sifati (samaradorligi) quyidagilarga bog'liq: avvalgi bosqich mahsuldarligi va mazkur bosqichda erishilgan natijalar, o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi, o'quvchilariga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish hamda o'quvchilarining bilim olishga qobiliyatları va ta'lim vaqtini.
4. Ta'lim metodlari samaradorligi quyidagilarga bog'liq: metodlarni qo'llashda bilimlari va ko'nikmalari, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, o'quvchilarining yoshi, ta'lim olish imkoniyatlari, moddiy-texnik ta'minot hamda o'quv jarayonini tashkil etish.
5. Ta'limni boshqarish mahsuldarligi quyidagilarga bog'liq: ta'lim tizimida qayta aloqalarining intensivligi va tuzatish, ta'sir ko'rsatishlarning asoslanganligi.
6. Ta'limni rag'batlantirish samaradorligi quyidagilarga bog'liq: ta'limning ichki rag'batlari (sabablari) hamda tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik) rag'batlari.

Zamonaviy fanga aniq qonuniyatlar ko'plab soni ma'lumdir. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Didaktik qonuniyatlar.

2. Gnoseologik qonuniyatlar.
3. Psixologik qonuniyatlar.
4. Kibernetik qonuniyatlar.
5. Sotsiologik qonuniyatlar.
6. Tashkiliy qonuniyatlar.

Didaktik tamoyillar (didaktika tamoyillari) o‘quv jarayonining umumiyligi maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang‘ich qoidalardir.

Tamoyil (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang‘ich qoidasi; boshqaruvchi g‘oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Fuqarolik tamoyili. Unga ko‘ra ta’lim mazmunini, shaxsning sub’ektivligini rivojlanirish, uning ma’naviyligi va ijtimoiy yetukligiga yo‘naltirishda namoyon bo‘lishi kerak. U ta’lim mazmunini insonparvarlashtirishni nazarda tutadi va fuqarolikni anglash, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va siyosiy tuzilishi haqidagi tasavvurlar tizimi, o‘zbek xalqi madaniyati psixologik xususiyatlari, uning mentalitet xususiyatlari, milliy siyosati va madaniyati kabi dolzarb masalalar haqidagi tasavvurlarining shakllanishi bilan bog‘liq.

Ta’limning ilmiyligi tamoyili ta’lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon sivilizatsiyasi to‘plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta’lim vaqtida va o‘qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta’lim mazmuni o‘quvchilarni ob’ektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollarini ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki konsepsiyalari bilan tanishtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishini talab etadi.

Ta’limning tarbiyalovchilik tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta’lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta’lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Ta’lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o‘quvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog‘liq.

3.Ta’lim, tarbiya va rivojlanishning birligi.

Ta’limning fundamentalligi va amaliy yo‘nalganligi tamoyili umuiy o‘rta ta’lim maktablaridayoq o‘quvchilar chuqur nazariy va amaliy tayyorlikdan o‘tadilar. Mazkur holat an’anaviy didaktikada ta’limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi kabi ifoda etiladi.

O‘qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to‘la va chuqur bo‘lishini ko‘zda tutadi. U odamdan yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko‘rinishda bo‘lishi, bilimlarini doimiy ravishda to‘ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvchi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslangan. Fundamental bilimlar aniq bilimlariga qaraganda sekin eskiradi,

shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko‘proq uning fikrlash layoqatiga bog‘liq bo‘ladi. Ta’limning fundamentalligi bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o‘zaro nisbatda bo‘lishni talab etadi.

Ta’limning tabiat bilan uyg‘unligi tamoyili. Ya.A.Komenskiy o‘zining tabiatga uyg‘un bo‘lishi g‘oyasini ifoda etib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta’lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligini ta’kidlaydi. Ertalabki soatlar mashg‘ulotlarni bajarish uchun juda qulay hisoblanadi. O‘quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi. Demak, tabiat bilan uyg‘unlik g‘oyasi asta-sekinlik, ketma-ketlik va mustaqil faoliyat kabi ta’lim tamoyilining asosi hisoblanadi.

5- Mavzu Ta’lim-tarbiya jarayoni va uning asosiy tarkibiy qismlari.

Reja:

- 1.Ta’lim-tarbiya jarayoni yaxlit tizim ekanligi.
- 2.Ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy tarkibiy qismlari.

1.Ta’lim-tarbiya jarayoni yaxlit tizim ekanligi.

Ta’lim jarayoni; ta’lim jarayonida o‘quv-bilish faoliyati; shaxs kamoloti. Ta’lim mazmuni, uni tanlash manbalari va mezonlari: ta’lim mazmuni quyidagi hujjatlarda o‘z ifodasini topadi: ta’lim standartlarida (DTS; TTS) – talablar ko‘rinishida; o‘quv rejalarida (tayanch; namunaviy; ishchi) – o‘quv predmetlari tarzida; o‘quv dasturlarida (namunaviy; ishchi) – aniq o‘quv predmetining mazmauni tarzida; o‘quv mashg‘ulotlari jurnalida – qanday tarkibda va qanday tartibda, o‘quv materialini o‘rganligini qayd etilishi ko‘rinishida;

Pedagogik jarayon mohiyati va tuzilmasi. Pedagogik jarayon o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda qo‘llash faoliyatini o‘z ichiga qamrab oladi. Kasbiy ta’lim jarayonida **mazmun**, **o‘qish**, **o‘qitish**, **tarbiyalash** asosiy bog‘lovchi komponentdir.

O‘qish tizimli va asoslangan o‘quv faoliyati bo‘lib, ta’lim oluvchi tomonidan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirishda o‘quv jarayoni o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Anglash murakkab, rivojlanuvchi jarayondir. Xis-tuyg‘u va bilimlarni qabul qilish jarayonida ta’lim oluvchi ob’ektiv xaqiqatni anglaydi, u yoki bu predmet yoki jarayon to‘g‘risida taassurotga ega bo‘ladi.

Samarali o‘qitishning muhim shartlari quyidagilardir: ta’lim oluvchining qiziqishi faoliyatining faolligi, o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi samimiy munosabat. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabati, uning samarali o‘zlashtirishi, blim va malakasining oshirishi, o‘quv materiali bilan samarali ishlashi irodaviy sifatlarining rivojlanishi va olgan bilimlaridan estetik qoniqish hosil qilishini taminlaydi.

2.Ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy tarkibiy qismlari.

Ta'lim oluvchining xarakteri va faolligi rivojlanishi darajalari turlichadir. Agarda ta'lim oluvchilar faoliyati passiv bo'lsa, o'qitish jarayonini amalga oshirib bo'lmaydi.

1. Ta'lim oluvchining bilimlarni qabul qilish faolligi uning shaxs sifatida shakllantirishiga ham ta'sir ko'rsatadi. O'quvchida o'z-o'ziga munosabati mehnatiga, boshqa shaxslarga, jamiyatga, ishlab chiqarishga, atrof muxitga ham shakllantirib boradi.

2. Pedagogik jarayonning muhim speo'ifik sharoitlari. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning muhim speo'ifik shartlaridan biri - bu amaliy o'qitishdir. Amaliy o'qitish ta'limning muhim komponentlaridan biridir. O'qitish jarayoni amaliyotidan tubdan farq qiladi, chunki ishlab chiqarishdagi o'qitish uslubining asosiy maqsadi ta'lim oluvchining mahlum bir kasbga yo'naltirish va shakllantirishdan iborat.

O'quvchi va ta'lim olituvchi orasidagi o'zaro birligi va aloqadorligi haqida gapirilganda boshqaruvchi va o'rgatuvchi shaxs bu o'qituvchi ekanligini unutmaslik kerak. Faqat o'qituvchigina ta'lim oluvchiga bilim bera olishi, uni shaxs sifatida shakllantira va u ta'sir ko'rsata olishi mumkin.

Lekin, o'qituvchi qanchalik chuqur bilim bermasin, agar o'quvchi passiv, loqayd, beparvo bo'lsa unda qiziqish, intilish uyg'onmaydi, o'qituvchi va ta'lim oluvchi orasidagi munosabat sovuqligicha qolib, bilim berish jarayoni samarasiz bo'ladi.

O'qitish sistemada o'zaro aloqadorlik

O'qitish jarayonini metodlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqish lozim. Agar o'qish jarayoni ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlarini xisobga olmasdan tashkil etilsa, unday holda o'qitish jarayoni samarasiz bo'ladi.

O'qitish jarayonining muhim komponenti

Beriladigan bilim mazmuni o'quv dasturi, davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan bo'lib, uning tarkibini ijtimoiy maqsad, davlat buyurtmasi, pedagogik tizimining aniq maqsadlari belgilaydi. Pedagogik jarayonning faqat ta'limning mazmunliligigagina emas, balki uning qonuniyligiga ham ta'sir ko'rsatadi, chunonchi,

a) pedagogik jarayon sharoitiga qarab mazmun belgilanmasa, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishlari qiyin kechadi hamda pedagogik jarayon bilan amaliyotiy sharoit o'rtasidagi bog'liqlik yo'qoladi.

b) guruhning shaxsiy imkoniyatidan kelib chiqib o'qituvchi dasturga mantiqiy o'zgartirishlar kiritishi mumkin, biroq bunday holda ham pedagogik jarayonning o'zaro bog'liqligi buzilmasligiga e'tibor berishi kerak. O'quv jarayonining sifati butun pedagogik jarayon samaradorligiga bog'liq. Ma'lumot berishning pedagogik jarayoni – o'qituvchilarning ilmiy shakllanishi texnik va texnologik ishlab chiqarish bilimlarini shakllantirishdir. Pedagogik jarayonning tarbiyaviy funksiyasi doimiy o'qishtish va tarbiyalashdan iboratdir. Ushbu pedagogik jarayonda o'qituvchi va ustuning vazifasi ta'lim oluvchida ijobiy sifatlarni rivojlantirish uchun tarbiyaviy choralarни maksimal qo'llashdan iborat. Tarbiyachi ta'lim oluvchilarda jamoaga intilish, do'stlik, intizom, rostgo'ylik, o'z ishiga javobgarlik

kabi insoniy sifatlarni rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratadi. Buning uchun esa eng avvalo, murabbiyning o'zida shu sifatlar mujassam bo'lmog'i lozim.

Pedagogik jarayonning rivojlantiruvchanlik funksiyasi

Berilayotgan bilimlarni o'zlashtirish o'quv dasturida qayd qilingan ta'lism oluvchilar aqliy, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borasidagi harakatlar ularning o'zлari tomonidan ham amalga oshirilishi lozim.

Ta'lism oluvchilarini rivojlantirish – bu pedagogik jarayon natijasidir o'qish rivojlanishning garovi bo'lib, fikriy, aqliy rivojlanish bilan birga faoliyatning ham rivojlanishiga olib keladi.

Pedagogik jarayon to'g'risida aniq fikrga ega bo'lish uchun bu jarayonni yo'naltiruvchi (boshqaruvchi) kuchlar haqida ham ma'lumotga ega bo'lish kerak. Bunday kuchlarning rivojlanishini dialektik o'qish nuqtai nazaridan aniqlash mumkin. Pedagogik jarayonga yuzaga keluvchi qarama - qarashliklar va ularning o'zaro aloqasini o'rghanish ham muhimdir.

O'qituvchi ta'lism oluvchilarini bilim va malaka bilan qurollantirar ekan, ularni murakkab masalalarini hal qilishga yo'naltirilishi, pedagogik jarayonda yuzaga kelgan qiyinchiliklarning bartaraf etishga undagi talim oluvchi imkoniyatlaridan oshmasligiga ahamiyat berishi kerak. Shundagina ta'lism oluvchilarining qobiliyat va bilimlari oddiydan murakkabga qarab borib, ularni murakkab masalalar yechimini topishga undaydi. Ishlab chiqarish va o'qish orasida bevosita aloqa bo'lib, bu umumiy pedagogik jarayonda ta'lism oluvchilar kasbga yo'llash bilimlari amaliy masalalar yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etishini tushunib yetadilar.

6-Mavzu Ta'lism maqsadi va mazmuni.

Reja:

- 1.Ta'lism maqsadlari.
- 2.Ta'lism mazmunini shakllantirish mezonlari.

1.Ta'lism maqsadlari.

Ta'lism jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lum bir belgilangan tartibda amalga oshiriladigan faoliyatining tashkp ko'rshshshp ta'limshshg tashkiliy shaklini bslgilaydi. Ta'limgning tashkiliy shakllari o'qituvchi va o'quvchining hamjihatlikdagi faoliyatini aniklab beradi, ommaviy talim va alohida (individual) holdagi ta'limgning nisbatlarini belgilaydi.

O'rta Sharq ta'limi alohidalik, ayrimlik, yakka holda o'rgatish xususiyatlariga ega edi, o'rta asr davrida esa mashg'ulotlar o'quvchilarning uncha katta bo'lmagan guruhlarida o'tkazildi. XVI asrda dunyo maktabalarining tajribalarini o'rghanish asosida Ya.A.Komenskiy xarakterli jihatni dars shaklidagi ta'lismi tashkil etishdan iborat ta'limgning sinf-dars tizimini nazariy jihatdan tushuntirib berdi.

Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsada bugungi kunda ham keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda.

Sinf-dars tizimining mazmuni o‘quv ishlarini tashkil etish o‘ziga xos shakli sifatida quyidagilarda iborat:

- bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar sinfni tashkil etadi. Bu sinf maktabda o‘qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;
- sinf faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo‘yicha tashkil etiladi, buning natijasida bolalar maktabga yilning bir vaqt va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo‘ladi.;
- mashg‘ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;
- dars odatda bir fan yoki mavzuga bag‘ishlangan bo‘ladi, shu bois o‘quvchilar sinfda bitta material ustida ishlaydilar;
- darsda o‘quvchilarning ishiga o‘qituvchi rahbarlik qiladi, u o‘z fani bo‘yicha o‘qish natijalari, har bir o‘quvchini alohida bilimini baholaydi va yil oxirida o‘quvchini keyingi sinfga o‘tishi haqida qaror qabul qiladi.

Sinf-dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantiriladi. U bu shaklning hamma ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. Dars, ayniqsa, uning tashkiliy qurilishi va tipologiyasining ixcham nazariyasini yaratdi. K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog‘langan quyidagi uchta qismini ajratib ko‘ratadi:

- 1) ilgari o‘rganilgan bilimlar asosida yangi bililarni anglashni amalga oshirish va o‘quvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko‘rsatmani yaratishga qaratiladi. Darsning bu qismi K.D.Ushinskiyning fikricha darsga go‘yoki “eshik” hisoblanadi.
- 2) asosiy masalani hal etishga yo‘naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisobalanadi.
- 3) amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash va bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

Darsni tashkil etish ilmiy asoslarini ishlab chiqishga A.Disterveg ham katta hissa qo‘shdi. U o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyatiga taalluqli o‘qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, o‘quvchilarning yoshi imkoniyatlarini hisobga olishni zarurligini asoslab berdi.

Ta’limning sinf-dars tizimi alohida o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko‘rsatib berdi.

Afzalliklari: yaxlit o‘quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta’minlovchi aniq tashkiliy tizim; jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo‘lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati; o‘qituvchining o‘quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsiyonal ta’sir ko‘rsatishi; ta’limning emotsiyonalligi (zero, o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida o‘quvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o‘quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni o‘zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.

Kamchiliklari: tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi; o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishdga qiyinchilikning yuzaga kelishi; katta va kichik yoshli o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

2.Ta'lim mazmunini shakllantirish mezonlari.

Ta'limning tashkiliy shaklida – dars davomida o'quv mashg'ulotlari o'qituvchining rahbarligida, bir xil yoshdagi va ma'lum muddat mobaynidagi tayyorgarlik darajasi xamda o'rnatilgan jadvalga ko'ra doimiy bo'lgan o'quvchilarning guruhi bilan mashg'ulotlar olib boriladi. Dars davomida o'qituvchi tomonidan katta miqdordagi o'quvchilarni bir vaqtida o'qitish mumkinligi imkoniyatlari tug'iladi.

Ta'limning sinf-dars shakli XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida Angliyada yoyildi va bellankater tizimi dsb nomlandi. Bu nom uni taklif etgan mualliflar A. Bella va D. Lakkaster ism-shariflaridan hosil qilingandir. Kichik harakatlar asosida yosh avlodga oddiy ta'limnpng keng joriy etishdek jamiyatning ehtiyojini aks ettiradigan bu tizim o'qituvchining bir vaqt mobaynida 600 va undan ko'proq o'quvchilar bilan ishslashini nazarda tutar edi. Tajribali o'qituvchilarning faoliyati katta yoshdagi o'quvchilarni ta'lim jarayoniga tayyorlashga yo'naltiriladi, ular o'z navbatida o'quv mashg'ulotlarini o'zlarining kichik yoshdagi o'rtoqlari guruhi bilan o'tkazardilar, ularning ishlarini kuzatib borar va nazorat etardilar.

Sinf-dars tizimi amalda ko'p jihatdan ustun ekanligini namoyon etdi va ko'pgina mamlakatlarda qo'llana boshlandi. O'quvchilarning anglash faoliyatlarini yanada faollashtirish uchun qilingan harakatlardan biri ta'limning yangi tashkiliy turi bo'ldi. Bu asrning boshlarida AQSh xalq ta'limining jamoat arbobi bo'lgan Ye. Tarkxerst tomonidan taklif etilgan edi. Bu dalton - reja deb nomlanib, ta'limni individuallashtirish va har bir o'quvchiga o'rgatishda mustaqil ravishda hamda o'z tezligida ilgari siljish imkoniyatini beradigan ta'lim turi edi.

O'qituvchi darsni tashkil qilar ekan o'quvchilar o'quv faoliyatini aktivlashtiruvchi ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning muqobil rejalarini amalga oshirishni ko'zda tutmog'i lozim. Darsga birmuncha tarbiyaviy talablar qo'yiladi. Qar bir dars ma'lum darajada g'oyaviy yo'nalghan aniq tarbiyaviy vazifalarni bajarishi, olingan ilmiy bnimlar asosida dunyoqarashni, yuqori axloqiy fazilatlarni, estetik didni shakllantirib ta'limni xayot bilan mustaqil aloqalarini ta'minlashi zarur. O'quvchilarda bilimga qiziqishni, bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmalarini qaror toptirish, ijodiy tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash, ularning tasavvurlari chuqurligi, rivojlanish darajasini xisobga olish xam darsga qo'yiladigan tarbiyaviy talablardan hisoblanadi.

Darsga qo‘yiladigan tashkiliy talablar: mavzuiy (kalendar) rejalashtirish asosida dars o‘tkazishning ishlab chiqilgan aniq rejasi mavjud bo‘lishi, dars o‘z vaqtida boshlanib, o‘z vaqtida tugashi kerak. Darsning mantiqiy izchilligi, tugallanganligi va darsning boshidan to oxirigacha o‘quvchilar ongli intizomi ta’minlanmog‘i lozim. Darsni tashkil etishda turli-tuman vositalardan, o‘quv texnik, kompyuter, statsionar va dinamik ko‘rgazmali qurollardan foydalanish ko‘zda tutiladi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

7-Mavzu Ta’limni tashkil etish shakllari. Dars ta’limning asosiy shakli va uning turlari.

Reja:

- 1.Ta’limni tashkil etish shakllari.
2. Dars ta’limning asosiy shakli ekanligi.
- 3.Darsning turlari va ularga qo‘yiladigan talablar.

1.Ta’limni tashkil etish shakllari.

Darslar juda ham turli-tuman shakl va tarkibiy tuzilishlarga ega bo‘lib, darslarni bir marta doimiy ravishda mavjud bo‘ladigan ko‘rinish tarzida rejalashtirish va o‘zgarmaydigan qotib qolgan namuna asosida o‘tkazaverish mumkin emas. Darsning tarkibiy tuzilishiga yuqorida qayd etib o‘tilgan omillar qatorida mazkur sinfda ishlashning haqqoniy shart-sharoitlari, shuningdek, o‘qituvchi ish faoliyatining ijodiy xarakteri katta ta’sir ko‘rsatadi. har bir dars boshqa darslar-dan hatto ular bitta fan, bitta mavzu yuzasidan teng, yonma-yon sinflarda o‘tkazilganda ham o‘zining o‘ziga xos jihatlariga ko‘ra farq qiladi. Darsda har doim o‘qituvchining maxsus «pedagogik yondoshuv tarzi»ni ko‘rish mumkin. Masalan, kombinatsiyalashgan dars quyidagi ko‘rinishda tashkil etiladi: tashkiliy ish, o‘quvchilarga berilgan uy ishlarining bajarilishini tekshirish, o‘rganilgan material yuzasidan o‘quvchilardan so‘rash, o‘qituvchi tomonidan yangi materialning bayon etilishi, o‘rganilgan materialni mustahkamlash, uyga topshiriqlar, vazifalar berish.

Darsning tarkibiy tuzilishi o‘qituvchi va o‘quvchilarning darsdagi hamjihatlikdagi faoliyatlarini tashkil etishning tashqi ko‘rinishini, tashqi namoyon bo‘lishinigina emas, balki o‘quvchilarning aktiv anglash faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ichki jarayonlarning mohiyatlarini ham aks ettirishi kerak.

Darsning tuzilishi o‘quv materialining mazmuniga, shart-sharoitlariga, o‘quvchilarning tayyorgarligiga va boshqalarga bog‘liq ravishda o‘zgarishi mumkin. Yangi bilimlarni o‘zlashtirish darsi quyidagilardan iboratdir: o‘quv materialini anglash va qabul etish; undagi aloqalar, o‘zaro munosabatlarii anglash, bilimlarii umumlashtirish hamda sistemalashtirish. Ammo yangi bnimlarni o‘zlashtirish darslarining ayrimlarini tarkibiy tuzilishlarida, ya’ni masalan, o‘quvchilar uchun butunlay notanish bo‘lgan materiallarni o‘rganish davomida asosiy bilimlarni tasavvurdan o‘tkalish umumai bo‘lmasligi mumknn. Darslarning har bir turi ko‘rsatib o‘tilgan asosiy bosqichlardan tashqari ichki tuzilishgadarsning har bir bosqichida ayrim didaktik vazifalarni hal etish metodikasiga ega bo‘ladi. Bu metodika har bir darsning ko‘p darajada muhim qismi hisoblanadi, chunki darsda qo‘llaniladigan metodlar, usullar va ta’lim o‘qitish vositalari davomiylik hamda o‘zaro bog‘liqliklarning turli-tuman muvofiqligi asosida qo‘llaniladi. Masalan, yangi o‘quv materialini anglash va qabul etish bosqichida o‘qituvchi tushuntirishdan, muammoli bayon etishdan, evristik suhbatdan,

o‘quvchilarning turli-tuman mustaqil ishlaridan, o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanishi mumkin.

2. Dars ta’limning asosiy shakli ekanligi.

Zamonaviy darslar uchun o‘zlashtirish, qismlarga ajratish, takrorlash va mustahkamlash, yangi o‘quv materialini egallash hamda uni amaliy jihatdan qo‘llash bilan bog‘liq ravishda oldin o‘rganilganlarni nazorat etish kabi tarkibiy qismlarning o‘zaro bog‘liqliklari xarakterlidir. O‘quvchilarning mustaqil ishlari faqatgina takrorlash va mustahkamlash bosqichlaridagina emas, balki yangi materialni o‘rganish davomidayoq tashkil etiladi, bu orqali o‘qitish bilan o‘rganish orasida, siifnning jamoaviy ishi bilan o‘quvchining individual (yakka holdagi) ishi orasidagi mustahkam bog‘liqlik amalga oshiriladi. O‘quvchilarning qidiruvchanlik faoliyatlarini tarkibiy qismlari faqat muammoviy xarakterdagina emas, balki hamma turdagи darslarning (kombinasnyalashgan, nazorat va boshqalar) ayrim bosqichlarida ham foydalaniladi. Oldinga qo‘yilgan didaktik vazifalarni hal etishning yo‘llariga bog‘liq holda dars qurilish tartibining ayrim bosqichlari kisqarishi va kengayishi, o‘qitish usullari hamda har xil metodlarning vazifalari, o‘rni o‘zgarishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy darsnnng tarkibiy tuzilishi o‘qituvchilarning boshqaruvchilik roli va o‘quvchilarning anglash faoliyatlarini tashkil etishning o‘ziga xosligini aks ettira turib, juda ham turli-tuman shakldaligi bilan farq qiladi. Darsning muvaffaqiyatlari o‘tishi o‘qituvchi hamda o‘quvchilarning darsga tayyorlanishlariga bog‘liqdir.

Darsga miridan-sirigacha tayyorlanish, xususan yetarli darajada pedagogik ish tajribasiga ega bo‘lmagan yosh o‘qituvchilar uchun juda zarur.

O‘qituvchining darsga tayyorlanishida dastlabki bosqichlar ajralib turadi. O‘quv yili boshlanishi oldidan o‘qituvchi dasturdagi hamma mavzularni o‘rganish vaqtini taqsimlab chiqadi, o‘quv mashg‘ulotlarining jadvali va mazkur fanni o‘rganishga o‘quv rejasidan ajratilgan haftalik soatlarning miqdorini hisobga olgan holda unga muvofiq bo‘lgan taqvimiylar muddatlarni o‘rmatadi. Shunday tarzda belgilab chiqilgan dastur o‘qituvchi uchun fan yuzasidan ishlarning taqvimiylarini (kalendor) rejasi sifatida xizmat qiladi.

O‘qituvchining darsga bevosita tayyorlanishi har bir, darsda qo‘llaniladigan mavzuni rejalashtirishni konkretlashtiradi. Darsning rejasi (uni ba’zida mavzuiy rejadan farq qilib, darsning ish rejasi deb nomlaydilar) har bir o‘qituvchi uchun zarurdir. Odatta faqat uning hajmi farq qiladi: endigina o‘zining o‘qituvchilik faoliyatini boshlayotganlar o‘zlarining hamma harakatlari va darsning borishini tasvirlash, kichik bo‘laklarigacha ko‘rsatilgan mukammal tayyorlama yozadilar. Tajribali o‘qituvchilar esa qisqa, ixcham reja tuzadilar.

Darsning rejasi ixtiyoriy shaklda tuziladi, ammo unda quyidagi tarkibiy qismlarning aks etishini ta’minlash zarur: darsning o‘tkazilish muddati va uning mavzuiy reja bo‘yicha tartib raqami; o‘tkaziladigan sinfning, dars mavzusining nomi; ta’limning vazifalari, shakllantiriladigan bilim, iqtidor va ko‘nikmalar; o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish; dars bosqichlarining davomiyligi va

ushbu bosqichlarda vaqtning taxminiy taqsimlanishini ko‘rsatgan holdagi tarkibiy tuzilishi; o‘quv materialiniig mazmuni; darsning har bir qismida o‘qituvchi va o‘quvchining ish usullari hamda metodlari; ta’limning ko‘rgazmali va texnik vositalarini qo‘shib hisoblaganda darsni o‘tkazish zarur bo‘lgan o‘quv qurollari; darsda bevosita o‘tkaziladigan test sinovlari; uy vazifalari, topshiriqlar.

3.Darsning turlari va ularga o‘yiladigan talablar.

Darsning yutug‘i va uning natijalari nafaqat o‘qituvchining tayyorligiga, balki o‘quvchilarining tayyoragarliklariga ham bog‘liq bo‘ladi. Afsuski, ushbu masalaga ko‘pgina o‘qituvchilar o‘zlarining amaliy ishlarida yetarli darajada e’tibor bermaydilar. Shu bilan birga o‘quvchilarining navbatdagi darsga (yoki darslarga) ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan tayyorlanishlari ularda ijobjiy psixologik kayfiyatni vujudga keltiradi, anglashga, bilishga bo‘lgan yuqori darajadagi qiziqishni tug‘diradi. O‘quvchilarni oldinda turgan darslarga tayyorlashda quyidagilarni nazarda tutadi: ularni oldinda turgan darsning dasturiy o‘rganish rejasi bilan tanishtirish; (bu xususan yuqori sinflar bilan o‘quv ishlarida juda ham zarurdir) o‘quvchilarining tushunishi mumkin bo‘lgan darslarning ayrim bo‘limlari bilan tanishish; oldinda turgan darsda ko‘tariladigan masalalar yuzasidan ilmiy-ommabop adabiyotlarni o‘qish, yangi materialni o‘rganishga ko‘maklashadigan kuzatishlar va uncha murakkab bo‘lmagan tajribalarni o‘tkazish.

Darsdagi o‘quv ishlarining alohida holdagi shakli (individual turi) uning imkoniyatlari hamda tayyorarligini o‘ylab ko‘rib o‘rganishda xar bir o‘quvchining ilgari siljish tszligini nazorat etish imkoniyatini beradi. Uning yutuqlari differensiyalashgan topshi-riqlarni to‘g‘ri tanlash bilan, ularning bajarilishini o‘qituvchi tomonidan sistematik ravishda nazorat etish bilan, o‘quvchilarda vujudga keladigan qiyinchiliklarni hal etishlariga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish bilan belgilanadi. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zaif o‘zlashtiruvchi (o‘zlashtirmovchi) o‘quvchilar uchun nafaqat totshiriqlarning murakkabligini, balki ko‘p darajada unga ko‘rsatiladigan yordamni ham darajalashtirish (differensiyalash) zarur. O‘quvchilarining individual (alohida holdagi) ishlarini mohirlik bilan tashkil etganda ularda o‘z ustida ishslashning malaka va ehtiyojlari shakllanadi.

O‘quvchilarining darsdagagi individual (alohida holdagi) shakldagi ishlarini tashkil etishdagi jiddiy kamchiliklar shundan iboratki, ular amaliy jihatdan bir-birlari bilan muloqot qilmaydilar, ular egallagan mustaqil faoliyatning tajribasi esa jamoaning mulkiga aylanmaydi, sinfdagi o‘z tengdoshlari va o‘qituvchi bilan birgalikda muhokama qilinmaydi. Shuning uchun o‘quvchilarining darsdagagi individual (alohida, yakka holdagi) ishlari uni tashkil etishning jamoaviy shakllari bilan muvofiqlashib ketishi kerak.

O‘quvchilarining darsdagagi ishlarini barcha uchun umumiy (frontal) shaklda tashkil etish bilan bir qatorda, sinf bir xil yoki turli-tuman mashqlarni bajaradigan bir qancha guruhlarga ajratiladigai o‘quvchi-larning guruhiy ishlari kabi jamoaviy

shakllari ham qo'llaniladi. Shunga bog'liq ravishda yagona va darajalashgan (differensiyalashgan) guruhiy ishlarni ajratadilar, shu bilan birga boshqa xolatlarda u o'quvchilarning individual (alohida holdagi) va har tomonlama (frontal) ishlari bilan juda ham mustahkam bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'p darajada maqsadga muvofiq bo'lgan guruhning tarkibi 5-7 kishidan iboratdir. Qamkorlikdagi muvaffaqiyatli ishlar uchun bir xil ishlash tezligiga va taxminan bir xil o'zlashtirish darajasiga ega bo'lgan o'quvchilardan guruh jamlash zarur. Qoida bo'yicha ushbu guruhlarning tarkibi doimiy bo'lmasdan har bir fanlar bo'yicha turlicha bo'ladi, o'quvchilarning o'zlari tomonidan belgilanadi, o'qituvchi esa o'quvchilar orasidagi o'zaro munosabatlarni hisobga olgan holda to'g'rilab, bir yo'nalishga solib boradi.

8- Mavzu Ta'lim-tarbiya metodlari va ularining turlari.

Reja:

- 1.Ta'lim-tarbiya metodlari haqida tushuncha
- 2.Ta'lim-tarbiya metodlarini tanlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.
- 3.Ta'lim-tarbiya metodlarining turlari.

1.Ta'lim-tarbiya metodlari haqida tushuncha

O'quv bilish va o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodiga quyidagilar – suhbat, ko'rgazmali va amaliy metod, o'qituvchi boshchiligidagi induktiv yoki deduktiv reproduktiv yoki produktiv yo'nalishlardagi metodlar kiradi.

O'quv faoliyatiga qiziqtirish va rag'batlantirish metodiga – o'quv bilish va o'quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish hamda o'qish faoliyatiga qiziqtirish metodlari kiritilgan.

O'quv faoliyati samaradorligini va o'z-o'zini nazorat qilish metodiga – og'zaki, yozma va amaliy nazorat o'z-o'zini nazorat, hamda bilim darajalari bo'yicha testlar o'tkazish kabi metodlar kiritiladi.

Ta'lim metodi – ko'p manoli tushuncha hisoblanadi. Bu metodlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, balki ulardan kerakli o'rinda unumli foydalanish zarurdir. Qar doim metodlar bir-birini to'ldirib keladi, o'qituvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi faoliyatda keng qo'llaniladi. Agar aniq bir metod muayyan vaqtda keng qo'llanilayotgan bo'lsa, bu metod shu vaqt (jarayon)da didaktik vazifalarni yechish uchun juda muhim va qulaydir.

Har bir metod boshqa bir metod yordami bilan qo'llaniladi. Masalan, reproduktiv va muammoli-izlanish metodi suhbat, ko'rgazmalar, amaliy faoliyat yordamida qo'llaniladi. Shu navbatda suhbat, ko'rgazmali va amaliy faoliyat metodlari ham reproduktiv yoki izlanish metodlari orqali qo'llanishi mumkin.

Metodlarning nomlaridan ham shuni ko'rishimiz mumkin: muammoli bayon, evrichtik suhbat, izlanish, tajribaviy-amaliy ishlar, kuzatuv va hokazolar.

Mazkur metodlar nomlari o'zida ularning yo'nalishlari mazmuni hamda qo'llanilish maqsadini ham ifoda etadi.

O'quv jarayonining eng muhim jihatni ushbu metodlarning turlarga bo'linishi emas, balki o'qituvchining chuqur bilimga ega bo'lishi, metodlardan unumli

foydalana olishi, ta'lim oluvchilarga o'quv hamda o'quv ishlab chiqarish faoliyatida mazkur metodlarni to'g'ri qo'llay olishga o'rgatishdan iboratdir.

2.Ta'lim-tarbiya metodlarini tanlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Ta'lim metodlari o'quv jarayonini samarali tashkil qilishga yordam beradi. Shunga ko'ra ularning uch jihatini ko'rishimiz mumkin: umumdidaktik va xususiy metodik.

Umumiylidiktik jihat – o'zida ob'ektiv mohiyatni, didaktik metodning imkoniyat va talablarini aks ettiradi, bu esa o'quv jarayoni davriga bog'liq bo'limgan holda amalga oshiriladi.

Xususiy didaktik jihat – metodning ta'lim jarayoni davrlarida qo'llash sharoiti hamda ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyatini ifoda etadi.

Xususiy metodik jihat – metodlarning umum didaktik va xususiy – didaktik tavsifiga asoslanadi va alohida predmetlarni xususiy metodik jihatdan o'rganilishini ifoda etadi.

Nazariy ta'lim metodlari. O'quv muassasalarida boshlang'ich kasbiy ta'limni o'qitishning nazariy asoslari quyidagi bosqichlarda o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi: umumiylidik, umumiylidik texnik ta'lim va kasbiy ta'lim.

Umumiylidik fanlari bo'yicha ta'lim metodlarining umumiylidik, xususiy didaktik va xususiy metodik jihatlari pedagogik adabiyotlarda chuqr bayon qilib berilgan.

Umumtexnika va kasb fanlarini o'qitish metodlari aksariyat xalqlarda o'ziga xos mazmuniga ko'ra aniqlanadi, ya'ni:

–ko'p xususiyatlari tuzilma, ob'ektlarni turli xil yo'nalishlarda o'rganish;

–materialning keng qamrovligini, ta'lim oluvchining turli xil usullar asosida bilimlarni qabul qilishi;

–ta'lim oluvchilarning ishlab chiqarish ta'limi jarayoni bilan mustahkam aloqadorligi;

–materialning keng qamrovligi, tajribaviy izlanish soni va sifati jihatidan, xizmat ko'rsatish usullarini amaliy o'rganish.

–o'quv materiali mazmunida yangi texnika va texnologiyalar va imkoniyati mahalliy shart-sharoitlarning aks ettirish.

Ta'lim metodlaridan foydalanishda bularni inobatga olish zarur.

O'quv (bilish) faoliyatini tashkil qilish metodlari.

Suhbat metodi. Og'zaki bayon. Umumtexnika va kasbiy fanlarni o'rganish o'quv materialini og'zaki bayon etish, gapirib berish va tushuntirish orqali amalga oshiriladi, bunda mavzuni to'liq taqqoslaniladi, isbotlanib, misollar asosida tushuntiriladi.

- Bayon qilinayotgan material ta'lim oluvchilarning tushunishlari uchun qiyin bo'lgan, yangi ma'lumotlar berilayotgan, mehnat faoliyatini bajarilish yo'llarining tushuntirilib berilishi talab qilingan xollarda og'zaki bayon qilish metodidan foydalilaniladi.

Umumiy talablardan quyidagilarni ajratib olamiz:

- aniq ilmiy – texnik mazmun;
- mantiqiylik va ketma-ketlik;
- ta’lim oluvchilarga tushunarli va oson yetib boradigan;
- har bir bosqichda fikrni aniq va ravshanligi;
- o‘quvchilarning ehtiborligini, faolligini oshirish;

Suhbat. Bu kasb ta’limining shunday usulidirki, unda o‘qituvchi savollar yordamida ta’lim oluvchilarning ilgari o‘qlashtirilgan bilimlari asosida ularni esga tushiradi hamda mustaqil ravishda yangi bilimlar xosil qilishga undaydi.

Ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish savol-javob metodi orqali ham amalga oshiriladi. Bunday suhbat evristik suhbat deyiladi.

Suhbatning didaktik mohiyati o‘qituvchi ta’lim oluvchilar oldiga savol-javoblar qo‘yib, ularning mantiqiy manolari yechiladi va o‘quvchilarda o‘quv materiali bo‘yicha aniq fikrlar hosil qilinadi. Bu orqali o‘qituvchi o‘quvchilarga oldin egallagan bilimlaridan, kuzatuvlaridan, hayotiy va ishlab chiqarish tajribalaridan foydalanishga, ularni taqqoslashga, mantiqiy xulosalar chiqarishga yordam beradi.

O‘tkazilgan umumiy suhbatlar ta’lim oluvchilarning qiziqishi va diqqati oshishiga, bilimlarni yaxshi egallanishi olib keladi. Lekin suhbat metodi og‘zaki bayon metodidan ko‘ra murakkabroqdir. Mazkur metod o‘qituvchidan darsga puxta tayyorlanishni talab qiladi.

Umumtexnik va kasb fanlarini o‘rganishda evristik suhbatning quyidagi shartlariga amal qilish talab etiladi:

- o‘quv materialining mazmuni mantiqiy to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi shart;
- yangi o‘quv materialini o‘rganish jarayonida ko‘proq texnik va texnologik xujjatlar mazmunini muhokama qilish maqsadga muvofiq;
- suhbatni boshqa metodlar va o‘quv ishlar turlari bilan qo‘sib o‘tkazish kerak (tushuntirish, kitob bilan ishslash, kuzatuv).

Evristik suhbatda savollar keng qamrovli tuzilgan bo‘lishi lozim. O‘uyidagi savollarni ko‘rsatish mumkin:

- fanlarni qarama-qarshi qo‘yish, ularning mazmuni, o‘qitish jarayoni, dalillar va boshqalar;
- ta’lim oluvchilarning turli vaziyatlarda o‘z bilimlaridan foydalana olishlarini aniqlash;
- mavzu mohiyatini tashhizli tushuntirish;
- istotlash «ha» yoki «qarshi»ga dalil qilish;
- fanlararo bog‘liqlikni o‘rnatish.

Suhbat o‘tkazishda uning mantiqiy rejasiga qathiy rioya qilish kerak, savol-javoblarning ketma-ketligi shunday tuzilgan bo‘lishi kerakki, unda mavzu murakkablashib, rivojlanib borishini o‘quvchi sezishi lozim.

O‘qituvchi suhbatni xulosa bilan tugatishi kerakdir.

3.Ta’lim-tarbiya metodlarining turlari.

Ko‘rgazmali metod.

Insondagi tashqi olmni sezishining eng muhim organi – ko‘zdir. Olimlarning fikricha, 80% axborot miyaga ko‘z orqali uzatiladi. Ish operatsiyalarining 80% ko‘z orqali bajariladi. Ushbu dalillardan ko‘rishimiz mumkinki, ta’lim jarayonida ko‘rgazmali metod katta ahamiyatga egaligini.

Umumtexnik va kasb ta’limi fanlari bo‘yicha ko‘rgazmali metod tabiiy (asbob, dastgoh, detall, jihoz, material namunalari) va tasviriy (plakatlar, model, maket, sxema, kino-videofilm, slayda, kinoproeksiya, kompyuter, meltimedia...) jihozlar vositasiga qo‘llaniladi. Ko‘rgazmali metodning vazifalari turlicha bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi mavzu tushuntirishda yoki bir xil xollarda o‘rganilayotgan fan bo‘yicha aniq ko‘rgazma sifatida, yangi axborotlarni berishda ko‘rgazmali metoddan samarali foydalanish mumkin.

O‘quv jarayonida ko‘rgazmali metodning qo‘llanilishi didaktik qonunlarga muvofiq bo‘lishi darkor, ko‘rsatmali metodni qo‘llash bu maqsad emas, balki maqsadga erishishi yo‘lidir.

Ta’lim oluvchilarga savollar berilib, ko‘rgazmali metod orqali kino-videofilmni yoki o‘quv telefilmni qo‘yiladi, shundan so‘ng ta’lim oluvchilar o‘zlarini chiqargan xulosa asosida turli vazifalarni bajarishadi.

Mehnat va hunar usullarini ko‘rsatish vaqtida o‘qituvchi o‘quvchilarning diqqati va qiziqishini ko‘rsatilayotgan narsaga qaratishi, ularning mehnat harakatlarini faol va ongli ravishda zlashtirishga undashi zarur.

Amaliy ta’lim metodlari. Mashq amaliy metodning asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Mashq o‘tkazishning asosiy maqsadi o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilar texnika va kasbiy fanlar bo‘yicha egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish borasidagi ko‘nikmalarga bo‘lishlari taminlashdan iboratdir. Tlim oluvchilarning bilimlarini mustahkamlashda ham mashqlarning o‘rni katta. Barcha mashqlarni 3 ta asosiy tipga ajratish mumkin: reproduktiv badiiy, izlanuvchanlik.

Reproduktiv mashq - bu tipdagи mashqlarni bajarishda ta’lim oluvchilar qurilmaning tuzilishi, materiali, asbob-uskunalar, yozma vazifalarini o‘rganishadi. Reproduktiv mashqda chizma, sxema, grafik va diagrammalar muhokama qilinadi hamda ta’lim oluvchilar tomonidan ular bajaradi. Kasbiy fanlar bo‘yicha texnik xujjatlar – stanok pasportlari va texnologik kartalarni o‘rganish mumkin.

9- Mavzu Tarbiya turlari va ularning mohiyati Reja:

- 1.Tarbiya turlari va ularning mohiyati.
- 2.Sport tarbiyasi kasbiy ta’lim- tarbiya asosi ekanligi.

1.Tarbiya turlari va ularning mohiyati.

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy shunchalik ta’sir ko‘rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi ekanligi alohida ta’kidlanadi.

Tarbiya jarayoni shaxsning ijtimoiy qimmatli fazilatlarini shakllantirishga, uning atrofdagi dunyoga, jamiyatga, odamlarga, o'ziga nisbatan munosabatlari doirasinn vujudga keltirishga va kengaytirishga qaratilgan.

Shaxsning turmushdagi turli jihatlarga munosabatlari tizimi keng, xilma-xil va chuqur bo'lsa, uning ma'naviy dunyosi shunchalik boy bo'ladi. Tarbiya shaxsni ijtimoiylashtirish, uning aniq hayotiy mavqeini shakllantirish jarayonidir. Tarbaya shaxsning ongliligi, faolligi, fidoiyligi, vatanparvarligi, insonparvarligi va boshqa fazilatlarini shakllantiradigan jarayondir. Tarbiya o'z tabiatiga ko'ra ko'p faktorli xarakterga ega. Buning ma'nosi shuki, bola shaxcining qaror topishi maktab, oila, jamoatchilik, ijtimoiy muhit va yaqin atrofdagi vaziyatga bevosita yoki bilvosita ta'siri ostida ro'y beradi. Hamma narsa: odamlar, ashyolar, hodisalar, voqealar, avvalo ota-onalar va pedagoglar tarbiyalaylilar.

Tarbiya jarayonini mashhur pedagog A.Avloniy "Al-xosil tarbiya bizlar uchun yo hayot, - yo mamot, yo najot, - yo halokat, yo saodat, - yo falokat macalacidip" deb ta'riflagan va yana "Har mamlakatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyachiga bog'liq" X.X.Niyoziy "Agar yaxshi tarbiya kishining qimmatbaho boyligi bo'lsa, yomon tarbiya uning uchun haqqoniy baxtsizlik hisoblanadi va qo'shimcha uni haloq etadi", - deb tushungan.

Ta'lim orqali nazariy kamolotga erishiladi. Tarbiya esa Farobi fikricha "bu kishilar muloqotda etnik qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir", deb ta'riflaydi hamda "Insoniy maqsad - oliv baxt saodatga erishuvni o'ziga g'oya va oliv maqsad qilib olish kerak".

Yuqoridagi ta'riflarning barchasi shaxs tarbiyasining u yoki bu qirralarini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgandir.

Pirovard natijada har tomonlama kamol topgan, yetuk, barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgandir. Tarbiya jarayonining eng asosiy maqsadi har tomonlama va uyg'un kamol topgan yangicha fikrlaydigan shaxsni shakllantirishdir. Bu qiyin jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyuشتirishni va rahbarlikni, boshqarishni ham, tarbiyalanuvchi shaxsning faollik ko'rsatishini ham talab qiladi. Ammo bu jarayonda pedagog yetakchi rol o'ynaydi va tarbiyaning umumiy maqsadini amalga oshipadi.

Tarbiya uzoq davom etadigan va aslida uzlusiz jarayon bo'lib, bu jarayon bola maktabga kelishidan ilgariroq boshlanadi va butun umr bo'yi davom etadi. Tarbiya ko'pgina sabablarga, o'quvchilarnnng individual-tipologik tafovvtlarga, ularning hayotiy va ma'naviy tajribasiga, shaxsiy faolligiga boqliq.

Tarbiya jarayonidagi ziddiyatlar va uni harakatlantiruvchi kuchlar.

Ichki qarama-qarshiliklar, masalan: o'quvchiga qo'yiladigan talablar bilan uning yetukliligi, boodobliligi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yoki tashqi ta'sirlar bilan tarbiyalanuvchining ichki pozitsiyasi, ya'ni uning bu ta'sirlarga bo'lgan munosabati o'rtasidagi qarama-qarshilik tarbiya jarayonining manbai, harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi. Masalan: agar tarbiyachi bolalarga yangi faoliyat turini tavsiya qilgan taqdirda uning odobliligi, bu ishga kirishib ketishga tayyorgarligini hisobga olmagan bo'lsa, u qanchalik ko'p harakat qilmasin,

tarbiyalanuvchilar passiv bo‘ladilar, shuning uchun bu ishning o‘quvchilarga ta’sir etish darajasi samarali bo‘lmaydi.

Tarbiya jarayonining dialektikasi uning ziddiyatli ekanligida namoyon bo‘ladi. Aslida bu narsa tarbiyalanuvchilarga nisbatan qo‘yiladigan talablar bilan ularning tayyorgarlik darajasi, rivojlanish darajasi o‘rtasidagi qarama-qarshilikni hal etishga qaratilgandir.

Tashqi ziddiyatlar ob’ektiv mavjud bo‘lgan normalar bilan atrofdagi kishilar yurish-turishi o‘rtasidagi nomuvofiqlikda tafovutda namoyon bo‘ladi. Tashqi ziddiyatdlardan biri - tashqi talablar bilan o‘quvchining xulq-atvori o‘rtasidagi ziddiyatdir.

Maktab o‘quvchilarining da’volari bilan uning shaxsiy imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyat ham ichki ziddiyatlar jumlasiga kiradi. Bu ziddiyatlar xylq-atvorda ravshan ifodalanadi. Va’da berib - va’dasini bajarmaydi, biror ishni boshlab qo‘yib, oxiriga yetkazmaydi.

Insonnning shaxs sifatida kamol topishidagi asosiy manbalardan biri: talablar bilan ularni qondirish usullari (sharoitlari) o‘rtasidagi ziddiyatlardir. Agar maktab o‘quvchisining talablari tegishli ashyo yoki harakat bilan va zarur xajmda kondirilsa, ziddiyat ilk bosqichdayoq bartaraf etiladi.

Yosh avlodni tarbiyalash kishilik jamiyatining yashashi va davom etishining eng zarur shartidir. Jamiyatning odamga tarbiviyl ta’siri uning ilk bolalik davridan boshlanadi. Bu ta’sir oila, maktab, jamoatchilik va xalq ta’limi tizimi orqali amalga oshiriladi. Tarbaya jarayoni tarbiyachilarining sistemali va rejali ta’sirini hamda tarbiyalanuvchilarning xilma-xil faoliyatini o‘z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayot va faoliyatini padagogik jixatdan to‘g‘ri yushtirish juda muximdir.

Tarbiya jarayonining muhim xususiyatlaridan biri uning sistamali olib borilishi va bir maqsadga qaratilganlipdir. Masalan: mamlakatimizda komil insonni tarbiyalash uchun barcha imkoniyat va sharoit vujudga keltirilgan bo‘lib, yosh avlod ilk bolalikdan to voyaga yetgungacha yasli, bog‘cha hamda maktablarda mohir tarbiyachi va o‘qituvchilar qo‘lida tarbiyalanadi. Tarbiya jarayonining samarasi ham tarbiyachiga, ham tarbiyalanuvchiga bog‘liqdir.

Tarbiyaning xususiyatlari. Shuni nazarda tutish kerakki talim va tarbiya yagona jarayondir. Ammo ularni aynan bir jarayon deb o‘ylash mumkin emas.

Chunki har bir insonning o‘ziga xos xususiyatlari va belgilari bor. A.S.Makrenkoning fikricha tarbiya mantiqi ta’lim mantiqini takrorlamaydi.

Bolalarni tarbiyalash ishlari (ijtimoiy muhit, oila, bolalar doimo duch keladigan xilma - xil odamlar, bolalar va o‘smlar tashkilotlaridagi ishlar, radio, televidenie, adabiyot va san’at) kabi ta’sirlar bilan qo‘shilib ketadi. Shuning uchun ham tarbiyani ko‘p qirrali jarayon deyish mumkin. Ta’limda esa o‘qituvchiga hech kim qarshilik ko‘rsatmaydi. Tarbaya jarayonining birinchi xususiyati - uning ko‘p qirrali jarayon ekanligidir. Tarbiya jarayonining ikkinchi xususiyati - uning uzoq muddat davom etishidir. Buning uchun oylar va yillar mobaynida qunt bilan ishslash talab etiladi.

Tarbiya masalasi murakkab, qiyin masala ekanini, u mактаб doirasi bilan cheklanib qolmaganini, balki bolalarni tarbiyalash uchun hamma mas'uldir. Unda bolalar uzluksiz tarbiyalanib boradilar.

Tarbiyaning ta'lidan farqlantiruvchi yana bir xususiyati shundaki, u yaxlit holda va konsentrik asosda amalga oshiriladi. Tarbiyaning turli tomonlari bir-biri bilan uzviy bog'langandir. Ta'linda biror predmetga doir bilimlar, bo'limlar, mavzular, dasturlarga bo'linib, ma'lum bir vaqtida beriladi.

Tarbiya jarayonida esa doimo takrorlanishga duch kelamiz. Maktabdagи boshlang'ich, o'rta va yuqori sinflarda: jamoatchilik, do'stlik, o'rtoqlik, mehnatga va ijtimoiy muhitga ongli munosabat va boshqa sifatlarni tarbiyalash qo'zda tutiladi. Lekin ularning mazmuni bolalarning yoshi va hayotiy tajribasiga muvofiq kengayib va chuqurlashib boradi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati shundaki, bu jarayon ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, unda bolaning o'zi ham faol ishtirok etadi. O'quvchi tarbiyaning faqat ob'ektigina emas, balki atrofdagi voqealarga ta'sir etuvchi sub'ekt hamdir. Shuning uchun tarbiyachi bolaning imkoniyatlarini, istak va xoxishlarini, intilishlarini, unga bo'layotgan boshqa ta'sirlarni tashqi axborotlar manbaini hisobga olishi lozim. Agar bular unutib quyilsa tarbiyalash qiyinlashadi. Mana shulardai tarbiya jarayonining yana bir asosiy xususiyati - tarbiyada qarama-qarshiliklar g'oyat ko'pligi kelib chiqadi. Bu qarama-qarshiliklar bolalarda o'z tushunchalariga muvofiq dastlabki paydo bo'lgan sifatlar balan tarbiyachi tomonidan tarkib toptiriladigan sifatlar o'rtasida, ya'ni qo'yiladigan talablar bilan uni bajarish imkoniyatlari o'rtasidagi kurashda namoyon bo'ladi. Undan tashqari, bunday qarama-qarshiliklar ko'pincha bolaning ongi bilan xulqi bir-biri bilan muvofiq bo'lmasligida, o'qituvchining bolalarning yosh va individual xususiyatlari, fe'l-atvori, qiziqish va intilishlarini yaxshi bilmasdan munosabatda bo'lishida sodir bo'ladi.

Agap tarbiyalanuvchi sust bo'lsa, faoliyatsiz bo'lsa, har qanday tarbiyaning ta'siri kuchsiz bo'ladi, o'qituvchilarning urushishlari yetarli darajada samara bermaydi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati - ya'ni uning natijasi kelajakka qaratilganligini ko'rsatadi. Shuning uchun bolalarning tarbiyalanganlik darajasini darhol tezda aniqlash qiyin. Tarbiyachi o'z faoliyatida kelajak maqsadlarni qo'zda tutib ish kurishi kerak. Tapiya jarayonida shy kun talabining kelajax maqsadlar bilan uyg'unlashtirilishi ishimizning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. "Eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi" - degan xitoylix Konfutsiy.

O'qituvchi pedagogik faoliyatda insonparvarlik g'oyalariga rioya qilib ish tutishi darkor. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek, tarbiya ob'ekti emas, balki o'zi kabi sub'ekt deb qarashi darkor. Ya'ni o'quvchiga faqat uning buyrug'ini bajaruvchi emas, balki mening o'zim bilan teng huquqli, birga ishlovchi, ishonchli, hamkorlik qiluvchi deb qarashi lozim.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligida o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhim. Shuning uchun ularga qadriyatlarning mohiyati, mazmuni va shakli bilan tanishtirib, ularda milliy

ong, g‘urur, o‘zlikni anglash, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirish kerak. Buning uchun xalqning ko‘p yillik madaniy va ma’naviy me’rosini o‘rganish qodasiga rioya etish katta foyda beradi. Ma’naviy me’ros xalq og‘zaki ijodida, mutafakkirlar qarashlarida va xalq tajribasi kabi yo‘nalishlar orqali amalga oshiriladi.

10- Mavzu. Xalq pedagogikasi, sharq ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari.

Reja:

- 1.Xalq pedagogikasi, qadimgi xalqlar yodgorliklarida ta’lim-tarbiya masalalari.
- 2.Sharq ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari.

1.Xalq pedagogikasi, qadimgi xalqlar yodgorliklarida ta’lim-tarbiya masalalari.

Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma’naviy yuksalishini ta’minlovchi ta’lim-tarbiya, ma’naviyat va ma’rifat kabi tushunchalar mavjud bo‘lib, ular pedagogika sohasidagi o‘zgarishlarni jamiyat taraqiyoti bilan bog‘liq holda o‘rganishni talab etadi.

Pedagogika tarixi qadim zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha bo‘lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, mакtab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o‘rganib keldi. Har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning xayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqlir.

Binobarin mustaqillik tufayli ko‘hna Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlar milliy qadriyatlарining qayta tiklanishi va rivojlanishiga shart-sharoitlar vujudga keldi.

O‘z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondoshish, o‘tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g‘oyalarini xalq xayotiga tatbiq etish kabi ulug‘ ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda o‘zbek va boshqa qardosh xalqlarning milliy shakllanishi va rivojlanishini zamon talablariga mos keladigan ta’lim – tarbiya tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas.

Yosh avlodni tarbiyalash va o‘qitish nazariyasi bilan amaliyotning qanday taraqqiy qilib kelagnigini bilmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal qilib bo‘lmaydi. Bu ajdodlarimiz tomonidan isbot qilingan ilmiy – nazariy, falsafiy – tarbiyaviy haqiqatdir.

Axloqan pok va yetuk insonlarni tarbiyalash masalasini muvafaqiyatli hal etishda xalqimizning tarixiy an’analari, ma’naviy boyliklari, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ilmiy me’roslari va tarixiy – tarbiyaviy tajribalarini o‘rganib chiqish, ularning yutuqlarini hayotga, ta’lim – tarbiya ishlariga tadbiq etishning ahamiyati kattadir. O‘zbek xalqi tarixan ta’lim tarbiya sohasida o‘ziga xos dorilfunun yaratgan. Hatto hozirgi o‘zbek xalqi yashab turgan zaminda

zardushtiylik dini keng yoyilgan davrda ham nekbin pedagogik mafkura hukm surgan.

Bu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi

“Avesto”ning bizgacha yetib kelgan ayrim sahifalarida o‘z ifodasini topgan.

Biroq islomgacha davr tarbiyashunosligi, fan va madaniyati tarixini yoritish imkonи chegaralangan. Chunki, dastlab Iskandar boshchiligidagi Yunon – Makedon qo‘sishnlari, so‘ngra ibn Muslim Qutayba rahbarligida arab istilochilar olib borgan janglar, talonchiliklar, vayronagarchiliklar tufayli o‘sha davrga tegishli deyarli barcha asarlar, manbalar yoqib yuborilgan. Lekin islom va islomdan keyingi mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta’lim – tarbiyaga oid an’analarni, qadriyatlarni, xalq pedagogikasini ilmiy o‘rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tatbiq etish bugungi kunning muhim va dolzarb muammosidir.

1991 yilga kelib O‘zbekiston xalqi mustaqillikka erishgach, o‘zining yangi milliy Qomusi asosida hamma sohada bo‘lganidek, o‘zbek milliy fani va madaniyati, “Pedagogika tarixi”ga ham yangicha yondoshish imkoniyati tug‘ildi.

Pedagogika tarixi jamiyat taraqqiyoti qonunlariga suyangan holda turli pedagogik nazariyalarni, ta’lim-tarbiyaning mazmuni va metodlarini o‘rgatadi.

Demak, pedagogika tarixi ijtimoiy fandir. U tarixiy pedagogika xodisalariga davr talabi asosida yondoshadi, tarbiya nazariyasi va amaliyotini turli bosqichlarda xilma-xil bo‘lganligini ochib beradi, ilg‘or qarashlarning taraqqiyot yo‘lini ko‘rsatib beradi.

Xalq pedagogikasi, qadimgi turkiy xalqlar yodgorliklarida ta’lim-tarbiya masalalari.

Eramizdan avvalgi minginchi yillarning o‘rtalarida eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qahramonlik mavzusida juda ko‘plab afsona va rivoyatlar yaratilgan bo‘lib, ular avloddan avlodga og‘zaki va yozma ravishda o‘tib borgan. Agar ushbu afsonalar zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” asari mundarijasidan o‘rin olmaganda edi, biz ular haqida hech qanday ma’lumotga ega bo‘lolmagan bo‘lardik.

“Avesto” asari kim tomonidan yaratilgani borasida turli qarashlar mavjud bo‘lib, mashhur sharqshunos olim Ye.E. Bertelsning fikriga ko‘ra, ushbu asar 1278 yilda Rayd Zardusht ibn Bahrom ibn Pajdu degan kishi tomonidan yozilgan.

Zardusht ibn Bahrom ibn Pajdu dostonda keltirilgan ma’lumotlarni qanday manbalarga asoslanib bayon etganligi haqida ma’lumot yo‘q edi. Lekin tadqiqotchilar dostonni yozishda muallifning ikki muhim manba- “Avesto”ning yo‘qolib ketgan Chitradat (o‘n ikkinchi) va Spent (o‘n uchinchi) nusxalaridan foydalanganligini e’tirof etadilar.

Lekin “Avesto” tarjimoni Dj. Darmsteter Zardusht birinchi inson Gayomard haqidagi afsonaviy rivoyatning afsonaviy qahramoni bo‘lib, xalq fantaziyasining “mevasi”dir, deydi. Afsonada hikoya qilinishicha, u jaholat ramzi sanalgan “ilon” bilan kurashib halok bo‘ladi. Undan uch o‘g‘il qolib, ular uch tabaqa – kohinlar, harbiylar hamda dehqonlar avlodiga asos solganlar.

Mavjud manbalar, shuningdek, so‘nggi yillarda e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra zardushtiylik Sharq xalqlari sig‘ingan qadimgi dinlardan biri sanaladi. Mazkur dinning asoschisi Zardusht (Sariq to‘n egasi degan ma’noni anglatadi) bo‘lib, din ham uning nomi bilan atalgan.

Zardusht taxminan miloddan avvalgi 570 yilda tug‘ilgan bo‘lib, 77 yoshida, ibodat qilayotgan paytida dushman qohinlaridan biri tomonidan o‘ldirilgan.

Zardusht o‘z davrida ikki xudolik g‘oyasini ko‘tarib chiqadi. Asta-sekin u payg‘ambar darajasiga ko‘tariladi va o‘zini Axura-Mazda, ya’ni, Oliy Tangri elchisi deya e’lon qiladi. Zardusht dunyoni yaxshilik va yomonlik dunyosi tarzida ikkiga bo‘ladi. Bu ikki dunyo o‘rtasida bir-biriga qarama-qarshi g‘oyalari ustuvor bo‘lib, ular o‘rtasida doimo kurash ketadi.

Zardusht tomonidan asoslangan din uning hayotligidayoq ko‘plab o‘lkalarga yoyiladi. Biroq Zardusht vafot etganidan so‘ng zardushtiylik dinining g‘oyalari yanada keng yoyila boshlaydi.

“Avesto” asari eramizdan avvalgi YI asrning oxiri va IY asrning boshlarida yaratilgan bo‘lib, u uzoq davrlar mahsuli sanaladi, davrlar o‘tishi bilan qayta-qayta ishlanadi. Asarning to‘liq kitob holida shakllanishi eramizdan avvalgi birinchi asrga to‘g‘ri kelishi barcha manbalarda alohida qayd etiladi.

“Avesto” diniy xarakterga ega bo‘lish bilan birga o‘zida falsafiy, siyosiy, filologik, ta’limiy va tarbiyaviy masalalarni ham qamrab olgan asardir.

Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida zardushtiylik dini qadimgi Xuroson, Fors, Iroq va Balxdan tortib Suriya yerlarigacha tarqalganligini aytadi.

Zardusht eramizdan avvalgi VI asrda yashagan. Xorazmda yashagan chorvadorlar oilasi Spitama urug‘idan bo‘lgan. Otasi Paurushasp, onasi Dugdova ot va tuya boqish bilan shug‘ullanganlar. Zardusht ko‘p xudolikka sig‘inish hamda ko‘plab qurbanliklar qilinishi natijasida mollar qirilib ketayotganligi, shuningdek, turli qabilalar o‘rtasida nizolar kelib chiqayotganligini ko‘rib, uning oldini olish choralarini izlaydi va ana shu maqsadda o‘z ta’limotini targ‘ib qila boshlaydi. Lekin qabila boshliqlariga uning ta’limoti va unda ilgari surilgan g‘oyalari yoqmaydi. Zardusht xudodan kelgan vahiy orqali ko‘pxudolikka qarshi yakka xudolikni targ‘ib qila boshlaydi, kuchli hokimiyat o‘rnatib, yer yuzida tinchlikni barqaror etish uchun kurashadi, yaxshilik va ezgulik xudosi Axura Mazdani himoya qiladi.

Zardushtning yangi ta’limotini qabila a’zolari orasida targ‘ib qilishini istamagan qabila boshliqlari uni ta’qib etadilar. Ana shu ta’qib tufayli u Ray (Eron)ga qochadi va o‘z dinining o‘sha yerda to‘laqonli shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi. “Avesto”ni shoh Vishtasp (Gushtasp)ga taqdim etadi. Shoh Vishtasp uning homiysiga aylanadi. Vishtaspning farmoniga binoan otashxona - ibodatxonalar qudiriladi, zardushtiylik dinining g‘oyalari keng yoyila boshlaydi.

Vishtaspning farmoniga ko‘ra 1200 bobdan iborat “Avesto”ni oltin taxtga yozdirilib, shoh otashkadasiga topshiriladi.

“Avesto”ning kitob holidagi matni eramizdan oldin o‘n ikki ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan. Bu nusxa Iskandar Makedonskiy istilosiga qadar Istahr shahrida saqlangan. Iskandar Istahrni bosib olgach, “Avesto” kitobida

bayon etilgan tibbiyot, nujum, ilmi hikmat sohalariga oid g‘oyalarni yunon tiliga tarjima qilinib, qolgan fikrlar bitilgan sahifalar yoqib yuboriladi.

Zardusht butun hayoti davomida ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amaldan iborat uchlik g‘oyasini ilgari suradi va ushbu g‘oyaga avvalo uning o‘zi amal qiladi. Inson o‘limidan so‘ng marhumning faoliyati ustidan o‘tkazilgan hisob-kitob vaqtida Haqiqat ilohi u tomonidan sodir etilgan ezgu va yovuz amallarni maxsus tarozida o‘lchaydi.

Tarozining bir pallasiga ezgu fikrat, ezgu kalom, ezgu amal — xayrli ishlar, boshqa pallasiga esa yovuzlik va yomonlikka asoslangan xatti-harakatlar qo‘yiladi. Ezgu amallar salmog‘i og‘irlilik qilsa, marhum ruhi yuqoriga uchadi va jannatga tushadi, yovuz va yomon harakatlar qo‘yilgan palla og‘irlilik qilsa, chohga tushadi.

“Avesto” ta’limotida jismoniy va ma’naviy dunyo uch hayotiy davrga bo‘linadi.

Birinchi davr eng qadimgi davr sanalib, u ilk hayotni bildiradi. Bunda ham jismoniy, ham ma’naviy dunyoda yaxshilik tantana qiladi. Dunyoda yorug‘lik va insoniy saodat hukmron bo‘lgan. Yagona jinoyatchi - hokim Yima Vivaxvant bo‘lib, u kishilarni batamom rozi qilmoq uchun ularga mol go‘shti yediradi.

Zarushtiylik ta’limotida 15 yosh balog‘at yoshi sanalgan. O‘smir balog‘at yoshiga yetganda unga Zardusht qonunlari – falsafa, axloq-odob qoidalari va axloqiy yo‘riqlar mazmuni o‘rgatilgan. O‘smirlarning xudojo‘y mehnatkash, adolatli bo‘lib voyaga yetishlari, o‘y-niyat, so‘z va ishida halollikka tayanishlariga alohida e’tibor berilgan. Bolalarga ularning yoshligidayoq ko‘chat o‘tkazish, daraxtlarni parvarish qilish, uy-ro‘zg‘or buyumlarini yasash, yerga ishlov berish hamda chorva mollarini boqish borasidagi bilimlar berilib, amaliy ko‘nikmalarning hosil bo‘lishiga alohida e’tibor qaratilgan.

Zardushtiylik ta’limotining axloqiy yo‘riqlariga binoan inson tomonidan o‘z burchini his etishning eng birinchi belgisi ma’naviy poklik sanalgan.

Ayollarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish ijtimoiy zarurat hisoblangan. Ayniqsa, homilador ayollarga muruvvat ko‘rsatish asosiy insoniy burch hisoblangan. Diniy g‘oyalarga ko‘ra tuproq, suv, havo hamda quyosh muqaddas sanaladi, odamlar ularni e’zozlash, quyoshga sajda qilishga da’vat etiladi. Zardusht ta’limotida shaxsiy va turmush gigienasiga qat’iy amal qilish kishilar o‘rtasida turli xil kasalliklar kelib chiqishining oldini oluvchi tadbir ekanligi alohida uqtiriladi. Shu o‘rinda quyidagi qoidalarga amal qilish maqsadga muvofiqligiga urg‘u beriladi: qabristonlarning shahar yoki qishloqdan tashqarida bo‘lishiga alohida e’tibor berish, hayvonlarning qabrlarni oyoq osti qilmasliklari uchun qabristonlarning atrofini o‘rab qo‘yish, mayit (o‘lik)ni yuvish vaqtida ozodalikka rioya qilish, murda tekkan libos yoki murda qo‘yilgan joyni suv yordamida yuvib tashlash, turli jonzotlarning o‘ligi (inson murdasi) tushgan suv havzalarini bir necha bor qatron qilish (havzani yomg‘ir yoki daryo suviga bir necha bor to‘ldirib, suvni havzadan chiqarib tashlash), badan va sochning toza bo‘lishiga ahamiyat berish, tirnoqlarni vaqtqi-vaqtqi bilan olib turish, kuniga besh marta yuvinish va hokazolar.

Zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra oila muqaddas hisoblangan. Oila qurish ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Erkak kishi surriyot qoldirish layoqatiga ega bo‘lgan holda oila qurmasa, unga muayyan jazo berilgan. U qopga solib

kaltaklangan, peshonasiga tamg‘a bosilgan yoki beliga zanjir bog‘lab yurishga majbur etilgan. Ko‘p bolali oilalarning davlat tomonidan mablag‘ bilan ta’minlashi yo‘lga qo‘yilgan. Egizak yoki bir yo‘la uchta farzand ko‘rgan ayollarning maxsus ravishda taqdirlanishlari e’tirof etilgan. Zardusht g‘oyalariga ko‘ra naslning sog‘lom bo‘lishi, qavm qonini toza saqlash, turli irsiy kasalliklar kelib chiqishining oldini olish maqsadida yaqin qarindoshlarning o‘zaro oila qurishi man etilgan.

Qadimgi turkiy xalqlar yodgorliklarida tarbiyaga doir fikrlar. Turkiy xalqlarning yozma ma’rifiy yodgorliklari o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, pedagogika tarixi, xususan, yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bular “Urxun-Yenisey yodgorliklari”, “Irq yozuvlari” (“Ta’birnomा”) kabi manbalar bo‘lib, ulardan yangi davr kishisini tarbiyalashda foydalanish muhim vazifalardan sanaladi.

Kultegin bitigida Bilga hoqonning og‘a-inilari va qarindosh-urug‘lariga murojaat qilib, ularning xatolari tufayli turk elida ko‘p falokatlar yuz bergenini bayon etganligi ifodalanadi. Turkiylarning harbiy yurishlari, ularga qo‘shni bo‘lgan tabg‘achlarning bosqinchiligi tufayli xalq boshiga tushgan kulfatlar haqida so‘z yuritiladi, shuningdek, xalqning yolg‘onchilik, firibgarlik qurbanini bo‘lganligi ta’kidlanadi: “Oltin, kumush, ichkilik, ipakni shuncha hisobsiz berayotgan Tabg‘ach xalqi so‘zi shirin, ipak kiyimi nafis ekan. Shirin so‘zi, ipak kiyimi bilan aldab, yiroq xalqni shu xilda yaqinlashtirar ekan. Yaxshi qo‘shni bo‘lgandan keyin yovuz ilmni u yerda o‘rganar ekan.

2.Sharq ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari.

Sharqda eng qadimgi davrlardan eramizning IX asrigacha qaror toptirilgan ma’rifiy qarashlari inson shaxsining shakllanishida, uning kamolotini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda turkiy xalqlarning inson xulq-odobi va uni tarbiyalashga oid dastlabki tasavvurlari ifodalangan. Muayyan turmush tarzini qaror toptiruvchi ijtimoiy shart-sharoitga ko‘ra inson axloqiga nisbatan qo‘yilayotgan axloqiy talablar mohiyati ham o‘zgarib borgan. Biroq har qanday zamon va makonda ham inson ezgulikning jaholat, yaxshilikning yomonlik va ziyoning zulmat ustidan g‘olib kelishini istagan va ana shu istagi insonning ma’naviy kamolotini belgilovchi asosiy mezon bo‘lib, axloq-odobga oid qarashlar mazmunida markaziy o‘rin egallagan. Mazkur holatni yuqorida so‘z yuritilgan eng qadimgi ma’rifiy meros namunalari misolida ham yaqqol ko‘rishga muyassar bo‘ldik.

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy shunchalik ta’sir ko‘rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi ekanligi alohida ta’kidlanadi.

Hamma davrning ilg‘or kishilari tarbiyaga yuqori baho bergenlar. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Zardusht, Muhammad al-Xorazmiy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Axmad Yassaviy, Maxmud Koshg‘ariy, Shayx Najmuddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Burxoniddin Zarnujiy, Burxoniddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Havoiy, Zaxiriddin Bobur,

Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Hamza, Abdulla Avloniylar inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bilganlar.

Tarbiya jarayonini mashhur pedagog A.Avloniy "Al-xosil tarbiya bizlar uchun yo hayot, - yo mamot, yo najot, - yo halokat, yo saodat, - yo falokat macalacidip" deb ta'riflagan va yana "Har mamlakatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyachiga bog'liq" X.X.Niyoziy "Agar yaxshi tarbiya kishining qimmatbaho boyligi bo'lsa, yomon tarbiya uning uchun haqqoniy baxtsizlik hisoblanadi va qo'shimcha uni halox etadi", - deb tushungan.

Ta'lim orqali nazariy kamolotga erishiladi. Tarbiya esa Farobi fikricha "bu kishilar muloqotda etnik qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir", deb ta'riflaydi hamda "Insoniy maqsad - oliv baxt saodatga erishuvni o'ziga g'oya va oliv maqsad qilib olish kerak".

Yuqoridagi ta'riflarning barchasi shaxs tarbiyasining u yoki bu qirralarini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgandir.

Pirovard natijada har tomonlama kamol topgan, yetuk, barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgandir. Tarbiya jarayonining eng asosiy maqsadi har tomonlama va uyg'un kamol topgan yangicha fikrlaydigan shaxsni shakllantiriqdır. Bu qiyin jarayon ikki tomonlama bo'lib, uyuştirishni va rahbarlikni, boshqarishni ham, tarbiyalanuvchi shaxsning faollik ko'rsatishini ham talab qiladi. Ammo bu jarayonda pedagog yetakchi rol o'ynaydi va tarbiyaning umumiy maqsadini amalga oshipadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarida jasurlik, mardlik, sadoqat, insoniylik, xushxulqlik xislatlariga ega bo'lgan inson qiyofasi gavdalangan. Ibtidoiy turmush tarzi hamda odamlar o'rtasidagi munosabatlar mazmuni insonlarda ana shunday sifatlarning shakllanishini taqozo etgan. Ikki katta kuch - yaxshilik va yomonlik o'rtasida ayovsiz kurash borgan. Mazkur kurash jarayonida insonda eng yaxshi xislatlar shaklla borgan. Bilimlilik, xushxulqlik, muayyan kasb yoki hunarga ega bo'lish inson kamolotini belgilovchi asosiy ko'rsatgichlar hisoblangan.

11- Mavzu. Xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiyaga oid tajribalar.

Reja:

- 1.Qadimgi mamlakatlarda: Yunoniston, Rimda ta'lim-tarbiya.
- 2.Xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiyaga oid tajribalar.

1.Qadimgi mamlakatlarda: Yunoniston, Rimda ta'lim-tarbiya.

Qadimgi Yunonistonda madaniyat, məktəb və dəstlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlandı.

Yunonistonda qullarni "gapiradigan ish quroli" deb hisoblar edilar. Qullar oddiy insoniy hüquqlardan ham mahrum edilar.

Lakoniya (Sparta) da kemalar to'xtaydigan qulay gavanlar bo'lmaganligi tufayli qullar mehnatiga asoslangan dehqonchilik hukmron edi. 9 ming oiladan

iborat bo‘lgan quldorlar 250 mingdan ko‘proq aholiga hukmronlik qilardi. Spartada qullar shafqatsiz ta’qib ostiga olinar edi.

Tarbiya ishlari esa davlat ixtiyorida bo‘lib, uning asosiy maqsadi spartaliklarning bolalarini baquvvat, jismoniy sog‘lom, bardoshli, chiniqqan jangchilar qilib tarbiyalash va bo‘lajak quldorlarni yetkazishdan iborat edi.

Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha uyda yashar, keyin “**agella**” deb ataluvchi davlat muassasasida 18 yoshga yetguncha tarbiyalanan edi. Ular “**pedonom**” rahbarligida jismoniy sog‘lom bo‘lish uchun turli mashqlar bilan chiniqtirilar, sovuqqa, ochlikka va chanqoqlikka chidashga, og‘riqqa bardosh berishga o‘rgatilar edi. Ta’limning asosiy qismini harbiy gimnastika mashqlari egallar edi.

Qadimgi yunon tarixchisi, faylasuf olim Plutarx Sparta maktablaridagi ta’lim-tarbiya haqida gapirib, shunday deydi:

“O‘qish va yozishga kelganda bolalarga faqat ularning eng zaruri o‘rgatilar edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsad: hech so‘zsiz itoat qildirishni, chidamli bo‘lishni va yengish ilmini o‘rgatishni ko‘zda tutar edi”.

Spartada ta’lim-tarbiyaning yana bir muhim vazifasi yoshlarni qullarga nisbatan shafqatsiz, ularni mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat edi. Shu maqsadda yoshlar “**Kreptiyalar**”da, ya’ni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashar, shubhali bo‘lib ko‘ringan har qanday illatni (qulni) o‘ldirar edilar.

Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar o‘tkazib, shu yo‘l bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar edilar. Shuningdek, bolalarni savol-javob jarayonida aniq, qisqa va lo‘nda qilib javob berishga o‘rgatib borilgan.

Spartada 18—20 yoshga yetganda yigitlar “**Efeblar**” o‘sprinlar guruhida harbiy xizmatni o‘taganlar.

Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida e’tibor berilgan. Ularni harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan quollantirib borilgan. Chunki erkaklar jangga ketganlarida ular shaharni qo‘riqlab, qullarni itoat saqlashini ta’minlar, ular hatto jangda ham qatnashar edilar.

Afinada esa hayot, tartib, intizom, mакtab tizimi va undagi ta’lim-tarbiya spartanikidan butunlay farq qilar edi. Qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Afinada eramizdan ilgarigi V—IV asrlarda madaniyat barq urib o’sdi. Fan, me’morchilik va haykaltaroshlik taraqqiy qildi.

Afinada eng ko‘rkam va barkamol inson deb ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan yetuk kishini o‘zlarining “ideali” deb hisoblar edilar. Bu ideal faqatgina yuqori tabaqali quldorlarga xos edi. Jismoniy mehnat esa faqat qullarning qismati deb hisoblanar edi.

Afinada bolalar 7 yoshga yetguncha uyda tarbiyalanar, o‘g‘il bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga qatnar, qizlar esa oilada ona ko‘magida uy-ro‘zg‘or ishlariga o‘rgatilar edi. Afinada xotin-qizlarning hayoti uy doirasidan chiqmas, asosan ichkarida o‘tar edi.

Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13—14 yoshgacha “**grammatist**” (savod o‘rgatish ma’nosida), “**kifarist**” (grekcha musiqa o‘qituvchisi ma’nosida) maktablarda tahsil olganlar. Bu maktablar xususiy bo‘lib, o‘qish pullik edi. shuning uchun fuqarolarning bolalari bu maktablarda ta’lim ololmas edilar.

Bu maktablarda “**didaskol**” deb atalgan o‘qituvchilar mashg‘ulot olib borar edilar. (men o‘qitaman, degan ma’nodagi “didasko” so‘zidan keyinroq “didaktika” — ta’lim nazariyasi kelib chiqqan).

O‘g‘il bolalarni maktabga qullardan biri boshlab borar edi, bunday qul **pedagog** deb atalar edi (“pays” - bola, “agogeyn” - yetaklab borish degan so‘zlardan olingan). **Grammatist** maktabida o‘qish, yozish va hisoblash o‘rgatilar edi. O‘qishda harflarni hijjalab o‘qitish usuli, so‘ng qo‘sib o‘qish usulidan foydalanganlar. Yozuvni o‘rgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan foydalanganlar. Ular ingichka cho‘p yordamida yozganlar. Sonlar barmoqlar, sopol toshlar, sanoq taxtasi yordami bilan hisoblaganlar. **Kifarist** maktabida o‘g‘il bolalarga adabiy bilim va estetik tarbiya berilar, muzika, ashula, deklomatsiyalar o‘rgatilar edi.

O‘g‘il bolalar 13—14 yoshga yetganlaridan keyin **palestra** (“kurash maktabi”) deb atalgan o‘quv yurtiga o‘tar edilar. Bu o‘quv yurtida ular ikki—uch yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanar edilar. Masalan, sakrash, yugurish, kurash tushish, disk va nayza irg‘itish, suvda suzish kabilalar o‘rgatilardi. Palestrada o‘qish tekin edi, shuning uchun ham yoshlarning ko‘pchilik qismi palestrada o‘qish bilan cheklanib qolar edi.

Yoshlarning badavlatroq oiladan bo‘lgan qismi palestrani tugatgach **gimnasiyga** (jismoniy, ijtimoiy tarbiya) kirar edi. Ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o‘rgatilgan. Bu maktabni tugatgan yoshlar davlatni boshqarishda qatnashishlari mumkin edi.

Nihoyat, Spartada bo‘lgani kabi, Afinada ham 18 dan 20 yoshgacha bo‘lgan yoshlar Efeblar qatoriga o‘tib, harbiy xizmatga tayyorlanar va o‘zlarini siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirar edilar.

Aholining ko‘pchilik qismi bolalarni maktablarda o‘qita olmaganligi sababli ularga kasb-hunar o‘rgatish odat tusiga kirgan edi. Ayrim xat-savodi bor otalar bolalariga o‘qishni o‘zлari o‘rgatar edilar. Bu kabi tartib davlat tomonidan qonunlashtirilib qo‘yilib bechorahol tabaqaga mansub ota-onalar o‘z bolalariga biror kasbni o‘rgatishga majbur edilar. Aks holda ularning bolalari kelgusida keksayib qolgan ota-onalari to‘g‘risida moddiy g‘amxo‘rlik qilishdan ozod etilar

edi. Quldar zodagonlar mehnat bilan shug‘ullanuvchi erkin aholiga nafrat bilan qarardi. Qullarni esa “gapiradigan ish quroli” deb hisoblar edilar.

Yunonistonda maktab va madaniyatning tez rivojlanishi pedagogika nazariyasining ham tug‘ilishiga imkoniyat yaratdi. Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Aristotel va Demokritlar asos soldilar. Ular o‘z qarashlari bilan ta’lim-tarbiya rivojlanishiga juda katta hissa qo‘shdilar.

Suqrot dunyoning tuzilishini, buyumlarning fizik holatini bilib bo‘lmaydi, odamlar faqat o‘zlarinigina bilishi, axloqni kamol toptirishi lozim deb hisoblar edi. Suqrot faylasuf bo‘lishi bilan birga ajoyib notiq ham edi. U keng maydonlarda so‘zga chiqib, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o‘tkazar, tinglovchilarni savol-javob yo‘li bilan haqiqatni o‘zlari topishlariga va bilishlariga undar, shu yo‘l bilan odamlarni haqiqatni izlashga o‘rgatar edi. Suhbatni bu metodi “Suqrot metodi” deb yuritilgan. U pedagogika olamiga ana shunday savol-javob metodini, ya’ni “**evristik**” suhbat metodini yangi (savol berish va savolni to‘ldirish) metodini olib kirdi.

Suqrot — falsafiy dialektikaning asoschilaridan biri. U baxs orqali, ya’ni muayyan masalalarni o‘rtaga qo‘yish va ularga javob topish yo‘li bilan haqiqatni aniqlash mumkin deb tushungan.

Platon eramizdan ilgari (424—347 yillarda) yashagan. Qadimgi Yunonistonning mashhur – idealist faylasufi, Suqrotning shogirdi, ob’ektiv idealizm nazariyasining asosichisi edi. U “g‘oyalar dunyosi”ni birlamchi, his qiluvchi narsalar dunyosini ikkilamchi deb hisobladi.

Platon olamni hodisalar dunyosi va g‘oyalar dunyosi deb ikkiga bo‘ldi. Uning fikricha g‘oyalar abadiy va o‘zgarmasdir. Uning nazarida, narsalar g‘oyalar olamining soyasidir, xolos.

Tarbiya, — deydi Platon, — davlat tomonidan tashkil etilmog‘i va hukmron guruhlarning — faylasuflar va jangchilarning manfaatini ko‘zlamog‘i lozim. Platon o‘zining pedagogika tizimida Sparta va Afina tizimining ba’zi bir belgilarini birlashtirishga intiladi.

Platonning fikricha, bolalar 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab qo‘ylgan tarbiyachilar rahbarligida maydonchalarda turli o‘yinlar o‘ynash bilan shug‘ullanishlari muhimdir. Platon o‘yinlarni maktabgacha tarbiya vositasi deb hisoblab, ularga katta ahamiyat beradi, shuningdek, bolalarga hikoya qilib beriladigan materiallarni sinchiklab tanlash kerakligini ham uqtirib o‘tadi. U bolalarga eng yoshlik chog‘idanoq ijtimoiy tarbiya berish tarafdori edi.

Bolalar 7 yoshdan 12 yoshgacha davlat maktablariga qatnaydilar va bunday maktablarda o‘qish, yozish, hisob, musiqa va ashula o‘rgatiladi.

Bolalar 12 yoshdan 16 yoshgacha odatdagি badantarbiya mashqlari o‘rganiladigan palestrada, ya’ni jismoniy tarbiya mакtabida o‘qiydilar. Palestrani tamomlagan o‘spirinlar 18 yoshgacha hisob, geometriya va astronomiyani

o‘rganadilar, bunda ko‘proq amaliy maqsadlar (ularni jangchilar qilib tayyorlash) ko‘zda tutilgan. 18 yoshdan 20 yoshgacha yigitlar “Efebiya”da tarbiyalanadilar, ya’ni harbiy gimnastika tayyorgarligini o‘taydilar. Aqliy mashg‘ulotga mayli bo‘lмаган yigitlar 20 yoshdan boshlab, jangchilar qatoriga o‘tadilar. Abstrakt tafakkurga qobiliyati borligi ochiq ko‘ringan yoshlar, ya’ni yigitlarning ozroq qismi 30 yoshga qadar falsafa, shuningdek, hisob, geometriya, astronomiya va musiqa nazariyasini o‘rganish bilan shug‘ullanib, shu tariqa ilm olishning uchinchi, oliy bosqichini o‘taydilar, ammo bunda amaliy maqsad ko‘zda tutilmasdan, balki falsafa—nazariyani mukammal o‘rganish ko‘zda tutiladi.

Arastuning fikriga ko‘ra, davlatning umumiy bitta oxirgi maqsadi bor, u ham bo‘lsa, davlat hamma fuqarolarga bir xilda tarbiya berilishini ta’minlashi lozim, mana shunday tarbiya berish esa xususiy tashabbusning vazifasi bo‘lmasdan, balki davlatning ishi bo‘lishi lozim.

U insonning yoshlik yillarini uchgaga bo‘lib o‘rganadi: 7 yoshgacha bo‘lgan davr; 7 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan davr (jismoniy balog‘at davrining boshlanishi) va jinsiy balog‘at davrining boshlanishidan 21 yoshgacha bo‘lgan davr. Uning fikricha, bunday davrlarga bo‘lish tabiatga mos bo‘lib tushadi.

Arastu o‘g‘il bolalar 7 yoshdan boshlab davlat maktabida o‘qishi lozim, deb uqtiradi. Bolalarga aqliy tarbiya berilishi kerakligini aytib, u o‘g‘il bolalar avvalo badantarbiya muallimlarining qo‘liga topshirilsin, deb talab qiladi; bunda u bolalarni haddan tashqari charchatib qo‘ymaslik kerakligini aytadi va ularni jismi mustahkamlanib olguncha yengil mashqlar bilan shug‘ullantirishni tavsiya etadi.

Arastu jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan bog‘langan, deb qaraydi. Boshlang‘ich ta’lim vaqtida, badantarbiyadan tashqari, yana o‘qish, yozish, grammatika, rasm va musiqa o‘rgatilishi kerakligini alohida uqtirib o‘tadi. O‘smlilar maktabda jiddiy ma’lumot olishlari kerak, ular adabiyot, tarix, falsafa, hisob, falakiyat, musiqa o‘rganishlari shart. Go‘zallikni his qilishni o‘stirish uchun musiqa o‘rganmoq kerak, ammo rasm chizish singari musiqa o‘rganish ham oddiy hunarga aylanib ketmasligini kuzatib turish muhim deydi. U xotin-qizlarning tarbiyasi xususida gapirib, bu erkaklarning tarbiyasiga o‘xshab ketmasligini, chunki ularning tabiatni mutloq erkaklarnikidan farq qilishini aytadi.

Demokrit tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo‘lib ilgari surdi. “Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o‘xshaydi” deb yozadi u. Demokrit “ta’lim mehnat asosidagina go‘zal narsalarni hosil qiladi”, deb, tarbiya ishida mehnatning roli juda katta ekanligini ta’kidladi.

U doimo mehnat qilib turishni talab qildi, mehnatga odatlarna borgan sari, mehnat yengil bo‘lib boradi, deydi. U yomon o‘rnakdan ehtiyyot bo‘lish kerak, deb ta’kidlaydi va yaxshi xulq hosil qilishda mashqning ahamiyati katta, deb hisoblaydi.

Demokrit barcha tabiiy jarayonlarga, jumladan, insonning axloqiy munosabatlarida ham kishi xulqini real, bu dunyodagi asosini topishga urinadi.

Demokrit axloqni odamning o‘z tabiatidan kelib chiqib asoslashga harakat qiladi. Bilish nazariyasida Demokrit moddiy olamni bilish va haqiqatga erishish mumkinligini ta’kidladi, bilish jarayonida sezgi va tafakkur rolini ko‘rsatdi. Uningcha sezgilarimiz orqali olingan bilim “qorong‘i”; u olamning mohiyatini ochib berolmaydi; aql orqali olingan bilim “yorug”, haqiqiy bilimdir. Tabiat sirlarini faqat fikrlash yo‘li bilan bilib olish mumkin.

2.Xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiyaga oid tajribalar

AQSHda ta’lim tizimi. Amerika Qo‘shma Shtatlarida bolalar 6 yoshdan 17 yoshgacha 12 yil o‘qiydilar. Ta’lim tizimi quyidagicha tashkil etilgan:

1. 3 yoshdan 5 yoshgacha maktabgacha tarbiya muassasalarida.
2. Boshlang‘ich maktab. Bu bosqich 1—5-sinflarni o‘z ichiga oladi.
3. To‘liq bo‘lmagan o‘rta maktab. Bu bosqich 6—8-sinflardan iborat.
4. Yuqori maktab. Bu bosqich 9—11-sinflar bo‘ladi. Mazkur Yuqori maktab bilan Oliy ta’limni aralashtirmaslik kerak.

Amerika maktablarida 9-sinfgacha asosiy e’tibor matematikaga emas, balki tabiiy fanlarga qaratiladi, yuqorida tasdiqlangan yagona dasturlar bo‘lmaydi. O‘quvchilar uchun yagona, majburiy darsliklar, qo‘llanmalar yo‘q. Amerika maktablarida texnikaviy jihatdan yaxshi jihozlangan, sinflar kompyuterlashtirilgan. Har bir maktabda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tashiydigan maxsus avtobuslar, stadionlar, turli laboratoriylar bor. Amerika maktablarining aksariyati davlat ixtiyorida bo‘lib, davlat mablag‘i bilan ta’minlanadi. Lekin shaxsiy maktablar ham anchagina. Katta shaharlarda yashovchi o‘ziga to‘q ota-onalar farzandlarini shaxsiy maktablarga berishga harakat qilishadi. Davlat maktablarida tekin, shaxsiy maktablar esa — pullik o‘qitiladi.

Yaponiyada ta’lim tizimi. Yaponiya ta’limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o‘z oldiga ikki vazifani: 1-boyish, 2-G‘arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo‘yadi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish kerakligi aytildi.

1872 yili “Ta’lim haqida Qonun” qabul qilindi. Bunda yapon ta’limi G‘arb ta’limi bilan uyg‘unlashtiriladi. 1908 yil Yaponiyada boshlang‘ich ta’lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. 1893 yili kasb yo‘nalishidagi dastlabki kollej paydo bo‘ldi.

1946 yili qabul qilingan Konstitutsiya fuqarolarning ta’lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiylar ta’lim olishlari shart ekanligi belgilab qo‘yilgan. Hozirgi zamон yapon ta’lim tizimlarining tarkibi quyidagicha: bog‘chalar, boshlang‘ich maktab, kichik o‘rta maktab, yuqori o‘rta maktab, oliy ta’lim tizimlariga kiruvchi o‘quv yurtlari. Bolalar yosh xususiyatlariga qarab 3, 2, 1 yillik ta’lim kurslariga jalb qilinadi. Yaponiyada

maktabgacha ta'lismuassasalarining 59,9% xususiy, 40,8% munitsipal, 0,3% davlatnikidir.

Majburiy ta'lismi. Ta'lismining pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. 6 yillik boshlang'ich ta'lismi va 3 yillik kichik o'rta maktab, 9 yillik majburiy ta'lismi tashkil etadi va u bepuldir, tekin darsliklar bilan ta'minlangan. Muxtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, o'quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. Zarur bo'lgan taqdirda ularning oilalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Shu qatorda xususiy maktablar ham mavjud.

Yuqori bosqich o'rta maktab 10, 11, 12 sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi va kechki bo'limlari mavjud. O'quvchilarning 95% kunduzgi maktablarda o'qiydilar.

Yaponiyada o'quv yili 240 kun (AQSh 180). O'quv yili 1 apreldan boshlanib martda tugaydi. Yozgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar 7 soatdan o'tiladi.

Dorilfununlarga katta o'rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni tugatgan o'quvchilar qabul qilinadi. U yerda 460 ta universitet bo'lib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munitsipal, 331 tasi xususiy, 1-toifadagi universitetlarda har bir o'qituvchiga 8 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba to'g'ri keladi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo'linadi: 1-bosqichi turar joyda o'tkaziladi: buning uchun yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, ximiya, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tadilar.

Janubiy Koreyada ta'lismi. Janubiy Koreyada ta'lismi haqidagi Qonun 1948 yilda qabul qilingan. Ta'lismi tizimiga asos qilib an'anaviy g'arb modeli olingan: 6 yil - quyi maktab, 3 yil - o'rta, yana 3 yil - oliy maktab; so'ngra to'rt yillik kollej va bakalavr unvoni beriladi; tanlangan fan yana 2 yil chuqr o'rganilgandan so'ng magistr unvonini olish mumkin. Fan doktori bo'lish uchun yana 3 yil vaqt sarflash lozim.

Mamlakatda oliy o'quv yurtlarining ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Koreyada 104 ta oliy o'quv yurti bor, ularning 80 foizi xususiydir. Hozir mamlakatda oliy o'quv yurtlarida o'qishga qiziqish juda kuchayib ketgan. Har yili maktablarni bitiruvchilarning 40 foizi o'qishga kiradi. Talabalar soni bo'yicha Koreya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Lekin maktabgacha ta'lismuassasalari ishida muammolar bor. Talab ehtiyojni qondira olmayapti. Shuning uchun 1982 yilda maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilindi. Bu yerda tarbiyaga bolalar bog'chasida asos solinishini yaxshi tushunishadi. Shu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hissasi kattadir.

Boshlang'ich maktab masalasiga kelganda (bu maktabga olti yoshlilar kelishadi) sinflarning tig'izligini kuzatish mumkin. Har sinfda 50 nafargacha bola o'qiydi. Dars nagruzkalari ham ko'proq. Lekin o'yinlar dam olish o'quv dasturiga kiritilgan. Shuning uchun dam olishga imkoniyat bor.

Boshlang‘ich mактабда дарс 40 минут давом этади. О‘рта мактабда esa дарслар 45 минут.

Oлиy мактабда дарсning давомиyligi 50 minutga teng. Bu yerda ikki muhim jihatga to‘xtalib o‘tish zarur. Oлиy мактабга, albatta, kirish imtihonlari topshirib kirladi, o‘qishlar pullik.

Boshlang‘ich mактабда 9 ta fan o‘qитилди. Koreys tilini o‘рганишга alohida e’tibor beriladi. Bundan tashqари arifmetika, ayrim ijtimoiy fanlar ham o‘qитилди.

O‘rta мактабда fanlar yana 4 taga ko‘paytirilgan. 7-sinfdan boshlab chet tillar o‘ргатилди. Mamlakatda ingliz tiliga e’tibor kuchli. Ko‘pchilik bu tilda bemalol gaplasha oladi. Chet tillarni o‘qitishga haftasiga 4—5 soat ajratilgan. Koreyslar yana bir tilni — klassik xitoy tilini majburiy ravishda o‘рганадilar. 8-sinfdan boshlab Xitoy tarixi o‘рганилди.

Hunar mакtablari Koreyada 600 tani tashkil этади. Bu mакtablarning 45 foizi bo‘lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 foizida texnik kasb egalari yetishib chiqadi. Qolgan mакtablarda dengizchilik, qishloq xo‘jalik ixtisoslari o‘zlashtiriladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, bu mакtablarga korxonalar otaliq qiladilar. Ta’lim haqidagi qонун талабларидан бирин shudir.

Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e’tibor kuchli. So‘nggi yillarda 5 ta sport, 6 ta ilmiy mакtab ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta’sir ko‘rsatgan.

Fransiyada ta’lim tizimi. Fransiya ta’lim tizimi ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda “Ta’lim haqida”gi Qонун dastlab 1955 yilda qabul qilinib, 1975 yilda unga qator o‘zgartirishlar kiritilgan.

Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan “Ta’lim haqida”gi Qонуни 1989 yil 10 iyulda qabul qilingan bo‘lib, uning o‘zgartirilishiga ta’lim strategiyasida ro‘y bergan o‘zgarishlar, mamlakatning ichki, tashqi siyosatdagi islohatlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg‘or tajribalarning mamlakat ta’lim tizimlariga kirib kelishi, o‘quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo‘ldi.

Fransiyada ta’limning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishini ta’minalash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o‘quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o‘rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu yerda:

1. Davlat mакtablari;
2. Xususiy mакtablar;
3. Oralig mакtablari mavjud.

O‘qitiladigan predmetlar ichida fransuz tili va adabiyoti, o‘qish va yozuv alohida ahamiyatga molik bo‘lib hisoblanadi. Ular uchun dars vaqtining 30% ajratiladi. O‘rtacha haftalik soatlar 26 soatdan iborat, darsning давомиyligi esa 60

minut. O‘quv yili 5 chorakka bo‘linadi. Fransuz maktablari boshlang‘ich sinflarida o‘qish ertalabki va tushdan keyingi qismlarga bo‘linadi. Ertalab o‘quvchilar ona tilidan, tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan saboq oladilar. Matematika, ona tili va adabiyoti baza predmeti, tarix, geografiya, mehnat, jismoniy tarbiya predmetlari esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi.

Germaniyada ta’lim tizimi. Maktabgacha tarbiya tizimi Germaniya ta’lim tizimida ham muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bolalar bog‘chalari ta’limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog‘chalarni mablag‘ bilan ta’minalash turli jamoat tashkilotlari, hayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota-onalar bolalar bog‘chalariga o‘z farzandlarini tarbiyalayotganliklari uchun ancha miqdorda pul to‘laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% bog‘chalarga qatnaydi. Germaniyada odatda bolalar bog‘chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning yarmida esa uyda, oilada bo‘ladilar. Germaniyada kuni uzaytirilgan bog‘chalar ham bor.

Majburiy ta’lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga tegishli, ya’ni bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba’zi joylarda 10 yil) maktabda to‘la haftalik o‘qishda o‘qiydi. O‘qish davlat maktablarida tekin. Xususiy maktablar ozroq. O‘qish 6 yoshdan boshlanib, 4 yil davom etadi (faqat Berlinda 6 yil). Boshlang‘ich maktabdan so‘ng o‘quvchilar yo‘nalish bosqichidagi maktabga o‘tadilar. Bu yerda 5-6 sinf bosqichidagi yo‘nalish maktablarda maxsus dastur asosida o‘qiydilar. Keyin navbatdagi muktab tipiga ko‘chadilar: bular — asosiy, maxsus muktab, real bilim yurtlari. Deyarli 30% bola asosiy maktabga o‘tadi. 9 yoki 10 yillik o‘qish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlikka o‘tiladi. Maxsus maktablarda nuqsonga ega bo‘lgan bolalar o‘qiydi. Real bilim yurtlari asosiy muktab va yuqori bosqich muktabi o‘rtasida turadi. Qoidaga ko‘ra bu yerda o‘qish 6 yil davom etadi (5-10 sinfgacha) va to‘la o‘rta ma’lumot berish bilan tugallanadi. Bilim yurtini tugatganlar o‘rta maxsus o‘quv yurtiga yoki yuqori bosqichidagi hunar-texnika muktabiga kirib o‘qish huquqiga ega bo‘ladi. Germaniyada gimnaziyalar ham mavjud. Ular 5-13 sinflarni o‘z ichiga oladi. 11-13 sinflar oliy o‘quv yurtlariga tayyorlash vazifasini ham bajaradi. Gimnaziyani bitirganlik haqidagi yetuklik attestati oliy o‘quv yurtida o‘qish imkonini beradi. Germaniya ta’lim tizimida hunar ta’limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo‘lgan talab kuchlidir. To‘liqsiz o‘rta muktabni bitiruvchilarning esa 20% hunar ta’limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Aksariyat hollarda o‘qish muddati 3—3,5 yilni tashkil etadi. O‘qish uch bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi yili asosiy hunar ta’limi beriladi. Bunga o‘qitilayotgan kasbga taalluqli maxsus fanlardan nazariy asoslar berilib, yirik korxonalarda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Ikkinchi yil davomida maxsus hunar ta’limi beriladi. O‘quvchining birinchi yilda ikkinchi yilga o‘tishi sinov imtihonlari o‘tkazilib o‘qishni davom ettiruvchi yoshlari tanlab olinadi. Uchinchi yil davomida maxsus hunar ta’limi yanada chuqurlashtirilib boriladi.. Bitiruv imtihonlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya a’zolari korxonalarining yetakchi mutaxassislari, federal yerlardagi sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi

vakillaridan tashkil topadi. Hunar maktablarining diplomlari oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun huquq bermaydi. Buning uchun 1 yillik tayyorlov kurslarini tugatish talab etiladi. O‘qishga qabul qilish imtihonsiz maktab ta’limi to‘g‘risidagi hujjatga asosan oshiriladi.

Oliy mакtab o‘z-o‘zini boshqarish huquqiga eга. Oliy o‘quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi.

UMUMIY PEDAGOGIKA O'QUV MODULIDAN TESTLAR

1.Pedagogika - . . .

- A) Ta'lism, tarbiya va shaxsni rivojlantirish qonuniyatlarini o'rganib, amaliy tavsiyalar beruvchi fan.
- B) Kishilik jamiyati to'plagan tajribalarini bir avloddan ikkinchisiga o'tkazuvchi fan.
- C) Falsafaning muhim tarmog'i.
- D) O'qituvchi(murabbiy)ning tahsil oluvchilarga ta'sir ko'rsatish san'ati haqidagi fan.

2.Qaysi javobda pedagogikani rivojlantiruvchi manbalar to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Fan, texnika va ishlab chiqarish texnologiyalari.
- B) Falsafa, psixologiya, pedagogika tarixi, yangi pedagogik texnologiyalar.
- C) Ta'lism-tarbiya va shaxsni rivojlantirishga oid uzoq o'tmishdan to'plagan tajribalari (xalq pedagogikasi),
- D) Yangi pedagogik texnologiyalar.

3. "Pedagogika" tushunchasi dastlab qaerda paydo bo'lgan?

- A) Markaziy Osiyoda.
- B) Sharqda.
- C) Xitoyda.
- D) Qadimgi gresiyada.

4. "Buyuk didaktika" asarining muallifi kim?

- A) Jan Jak Russo.
- B) Vilgelm Disterberg.
- C) Iogan Fridrix Gerbart.
- D) Yan Amos Komenskiy.

5. Shaxsni rivojlantirishga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

- A) Jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ong.
- B) Ota-onas, ta'lism muassasalari, muhit.
- C) Irsiyat, muhit, ta'lism-tarbiya ishi.

D) Ta’lim-tarbiya mazmuni,shakli,metod va vositalari.

6. Qaysi javobda pedagogik jarayonning sinonimi keltirilgan?

A) O‘quv-bilish jarayoni.

B) Ta’lim-tarbiya jarayoni.

C) O‘qitish faoliyati jarayoni.

D) Jamoaviy va individual o‘qitish jarayoni.

7. Qaysi javobda pedagogik jarayonning asosiy elementlari to‘liq keltirilgan?

A) Maqsad,mazmun,o‘qituvchi,darslik,sinf taxtasi.

B) O‘qituvchi,o‘quvchi,mazmun,maqsad,natija.

C) Maqsad, mazmun, tashkiliy shakllar, metodlar, vositalar, natija, ishtirokchilar.

D) Sinf xonalari, dars jadvali, jurnal, ishtirokchilar.

8. Nimalar pedagogik jarayonni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi?

A) Jamiyat talab va ehtiyojlari.

B) Tahsil oluvchilarning o‘qib-o‘rganishga qiziqishi.

C) O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” va qonunlari.

D) Jamiyatning talab va ehtiyojlari bilan tahsil oluvchilarning real imkoniyatlari orasidagi ziddiyatlar.

9. Pedagogik faoliyat umumiyl holda qanday bosqichlarni o‘ziga qamrab oladi?

A) O‘quv yurti, me’yoriy hujjatlar, moddiy texnik va ilmiy uslubiy ta’midot bilan tanishish, darsni rejalashtirib, amalga joriy etish, natijalarini baholash, hisobotlar berish.

B) Loyihalashtirish, amalga oshirish, olingan natijalarini ko‘zlangan maqsad bilan qiyoslab baholash.

C) Taqvimiyl-mavzular rejasini tuzish, mashg‘ulotlar o‘tkazish, o‘quvchilarni o‘zlashtirganligini aniqlab,baholash.

D) Ta’lim muassasasining maqsad va vazifalarini belgilash.

10. Pedagogik jarayon amal qiladigan asosiy qoidalar, talablar qonuniyat va dasturilamal g‘oyalar umumiyl holda nima deb ataladi?

A) Prinsiplar.

B) Ta’lim-tarbiya shakllari.

C) Pedagogik jarayonning harakatlantiruvchi kuchlari.

D) Pedagogik jarayonning maqsad va vazifalari.

11.Pedagogik jarayonning maqsadga yo‘naltirilganlik prinsipi mohiyati nimani anglatadi?

A) Respublikamizning jahon hamjamiyatidan o‘ziga munosib o‘rin egallashi.

B) Davlat talim standartlari darajasida ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etishni.

C) Jamiyat talab va ehtiyojlarini ko‘zlab ta’lim –tarbiya ishlarini tashkil etib, amalga oshirish.

D) Bozor sharoitida raqobatlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash.

12. Nazariy va amaliyotning birligi prinsipining mohiyati nimalardan iborat?

A) O‘rganilayotgan bilimlar bevosita amaliyot bilan bog‘liq bo‘lishini anglatadi.

B) Ilmiy-bilimlar har doim amaliyotdan kelib chiqishini anglatadi.

V) Amaliyot ilmiy bilimlarni keltirib chiqaruvchi asosiy manbaa va uning xaqqoniy ekanligini belgilovchi mezon ekanligini anglatadi.

C) Nazariya xar doim amaliyotga nisbatan yetakchi rol o‘ynashini anglatadi.

D) Amaliyot bilan nazariya umuman bog‘liq emasligini ko‘rsatadi.

13.Qaysi javobda ko‘rgazmalilik prinsipining mohiyati to‘g‘ri yoritilgan?

A) Ta’lim-tarbiya ishida faqat ko‘rgazmali qurollardan foydalanish zarurligini anglatadi.

B) O‘rganilayotgan ob’ektning o‘zini ko‘rishi zarurligini anglatadi.

C) Ko‘rgazmalilik tahsil oluvchi ongida o‘quv materiali bilan real voqelikning o‘zaro bog‘liqligini namoyon etadi.

D) Ko‘rgazmalilik aniq dalillar yordamida ob’ektni mukammal o‘rganish mumkinligini anglatadi.

14. Nazariya bilan amaliyotning bog‘liqlik prinsipining mohiyati qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) Nazariya hech qachon amaliyot bilan bog‘liq emas.
- B) Nazariy bilimlar amaliyotning mahsuli.
- C) Nazariya amaliyotdan kelib chiqadi va uning rivojlanishiga xizmat qiladi.
- D) Nazariya hayotda va amaliyotda muhim ahamiyatga ega.

15. Muntazamlik va ketma-ketlik prinsipi nimani ko‘zda tutadi?

- A) Muntazamlik va ketma –ketlik prinsipi qisqa vaqt ichida katta natija olishni;
- B) Shaxs o‘z hayotida muntazam ravishda o‘qib o‘rganib borishi zarurligini;
- C) Bilimlarni muntazam murakkablashib borishini;
- D) Bilim,ko‘nikma va malakalarni ketma-ket va muntazam shakllantirishni;

16. Onglilik va faollik prinsipining mohiyati qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan?

- A) Ta’lim-tarbiya jarayonida tahlil oluvchilarining ongliligi va faolligi o‘zaro aloqador rivojlanadirishi zarur.
- B) Onglilik faollikning asosi ekanligini.
- C) Faollikni onglilikka ta’sirini.
- D) Ta’lim –tarbiya jarayonida tahlil oluvchi ob’ekt emas, balki faol va ongli sub’ektdir.

17. Qaysi javobda uzluksiz ta’lim tizimi to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) Maktabgacha ta’lim, umumiyl o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim.
- B) Umumiyl o‘rta ta’lim,kasb-hunar kollejlari va akademik litseylardagi ta’lim,oliy ta’lim,malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’limi.
- C) Maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, umumiyl o‘rta ta’lim, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim.
- D) Umumiyl o‘rta ,o‘rta maxsus,kasb-hunar va oliy ta’lim.

18. Aralash dars deb qanday darslarga aytildi?

- A) Maktabda o‘tiladigan darslarga.
- B) Barcha o‘qituvchilar o‘tadigan darslarga.
- C) Nazariya bilan amaliyotni bog‘lab o‘tgan darslarga.

D) Yangi materialni o‘rganish, mustahkamlash va nazorat bosqichlarini o‘ziga qamrab olgan darslarga.

19. Monologik ta’limda o‘qituvchi qanday vazifani bajaradi?

- A) Tashkilotchilik vazifasini.
- B) Yagona ma’lumot manbai vazifasini.
- C) O‘quvchilarga xayrihohlik vazifasini.

D) Tarbiyachilik va boshqaruvchilik vazifasini

20. Kasbiy ta’lim mazmuni qanday manbalardan tanlab olinadi?

- A) Fan sohalaridan.
- B) Fan va mutaxssis faoliyatidan.**
- C) Fan mutaxassisning kasbiy faoliyati, mutaxassis bevosita munosabatda bo‘ladigan ob’ektlardan.
- D) Olim va mutaxassislarning fikr-mulohazalaridan.

21. “Metod”tushunchasining mohiyati nimani anglatadi?

- A) Bilish yo‘li ma’nosini anglatadi.**
- B) Suhbat qurish, fikr-mulohaza qilishni anglatadi.
- C) Ta’lim jarayonining muhim qismi ekanligini anglatadi.
- D) Ta’limga hech qanday aloqasi bo‘lmaganligini anglatadi.

22. Oliy ta’lim bosqichlari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- A) Bakalavriat, magistratura**
- B) Bakalavriat, magistratura, aspirantura
- C) Bakalavriat, magistratura, malaka oshirish
- D) Bakalavriat, aspirantura doktorantura

23. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida tarbiya maqsadi qaday izoxlanadi?

- A) ishbilarmon qanday izohlanadi
- B) har jixatidan barkamol, erkin shaxsni tarbiyalash
- C) vatanparvar fuqoroni tarbiyalash
- D) barkamol va ishbilarmon odamlarni tarbiyalash**

24. Qaysi javobda Turkiy tilda yaratilagan dastlabki ta'limiy axloqiy asar keltirilgan?

- A) Devoniy lug‘otiyturk
- B) Kutadgu bilik**
- C) Xibbat ul – xaqoyik
- D) Maxbub ul qulub

25. Axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

- A) huquqiy ongni shakllantirish qonunlarga hurmatni tarbiyalash, tabiatga ma’sullik munosabatini shakllantirish;
- B) fanni o‘rgatishga muhabbat o‘rgatish, bilimga tashnalik fazilatlarini tarbiyalash, iktisodiy ongni shakllantirish;
- C) sog‘lom turmush tarzini vujudga keltirish, jismoniy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, tozalik va sog‘liqni tarbiyalash;**
- D) umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ahloqiy ongni, ahloqiy his tuyguni, shaxsning hulqi va irodaviy sifatlarini shakllantirish;

26. Ekologik tarbiyaning asosiy vazifalarini ko‘rsating.

- A) tevarak – atrofdagi muhitga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bulishga o‘rgatish, insonga, hayvonlarga munosabatni tarbiyalash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi tushunchalarni berish;**
- B) umuminsoniy madaniyat va milliy qadriyatlarni bilishga jalb qilish;
- C) erkin shaxsni tarbiyalash;
- D) huquqiy davlat qonunlarini va huquqlarini hurmat qilish, o‘z mamlakatining ramzlarini hurmatlash;

27. Xalq ommasi tomonidan yaratilgan va avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshirish bobida qo’llanib kelingan usul, vosita, ko‘nikma va malakalar birligini ifodalovchi tajribalar asosida to‘plangan bilim va ma’lumotlar yig‘indisi.

Ushbu ta’rifda qanday tushuncha ifodalangan?

- A) pedagogika;
- B) tarbiya nazariyasi;
- C) didaktika;
- D) xalq pedagogikasi**

28. Pedagogika fani ilmiy-tadqiqot metodlarining asosiyлари qaysi guruhlarda ifodalangan?

- A) og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy
- B) subhat, kuzatish, savol-javob, algoritm, analiz va sintez
- C) ijtimoiy ongni shakllantirish, faoliyatni tashkil eti shva ijtimoiy xulq-atvor normalarini shakllantirish, rag‘batlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash
- D) kuzatish, suhbat, eksperiment, ta’lim muassasasi hujjatlarini o‘rganish, anketa, savol-javob, bolalar ijodini o‘rganish, test.**

29. «Mehnat ahloqiylikning asosi, sahovatlilik belgisi» - deb, qaysi ta’limotda ko‘rsatilgan?

- A) zardushtiylik
- B) mazdakiylik
- C) naqshbandiy**
- D) kubraviya

30. Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib ta’lim-tarbiyaga ta’rif bergen alloma kim?

- A) Al-Xorazmiy
- B) Al-Forobi**
- C) Al-Farg‘oniy
- D) Al-Beruniy

31. Sinf-dars tizimi kim tomonidan pedagogikaga kiritilgan?

- A) Jan Jak Russo.
- B) Vilgelm Disterberg.
- C) Iogan Fridrix Gerbart.
- D) Yan Amos Komenskiy.**

32. Dialogik ta’lim mohiyati qaysi javobda to‘g‘ri yoritilgan?

- A) Dars jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi ikki tomonlama muloqotda va munosabatda bo‘lib, unda tahsil oluvchilarning faol o‘quv-bilish faoliyati ta’milanadi.**
- B) Onglilik faollikning asosi ekanligini.

C) Faollikni onglilikka ta'sirini.

D) Ta'lim –tarbiya jarayonida tahsil oluvchi ob'ekt emas, balki faol va ongli sub'ektdir.

33. Monologik ta'lim elementlaridan qanday hollarda foydalilanildi?

A) Monologik ta'lim elementlaridan asosan ko'lami keng o'quv materiallarini yetkazishda qo'llaniladi.

B) Monologik ta'lim elementlaridan keng ko'lami o'quv materiallarini yetkazishda, ya'ni ma'ruza o'qishda qo'llaniladi.

C) Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi ikki tomonlama muloqotda munosabatda bo'lib, tahsil oluvchilarning faol o'quv-bilish faoliyati ta'minlanadi.

D) Ta'lim –tarbiya jarayonida tahsil oluvchi ob'ekt emas, balki faol va ongli sub'ektdir.

34. Noan'anaviy darslarda nimani hisobiga yuqori samaradorlikka erishiladi?

A) Noan'anaviy (Nostandard, zamonaviy) darslarda ta'lim beruvchilarning faolligi hisobiga yuqori samaradorlikk erishiladi.

B) Noan'anaviy (Nostandard, zamonaviy) darslarda faqat ta'lim metodlarinidan foydalanim yuqori samaradorlikk erishiladi.

C) Noan'anaviy (Nostandard, zamonaviy) darslarda ta'lim vositalaridan foydalanim yuqori samaradorlikk erishiladi.

D) Noan'anaviy (Nostandard, zamonaviy) darslarda tahsil oluvchilarning ongliligi, faolligi va mustaqilligi hisobiga yuqori sifat va samaradorlikka erishiladi.

35. Nimalar ta'lim-tarbiya ishini harakatlantiruvchi kuchlar hisoblanadi?

A) Jamiyatning talab va ehtiyojlari bilan faqat tahsil oluvchilarning faolligi ta'lim-tarbiya ishini harakatlantiruvchi kuchlar hisoblanadi.

B) Jamiyatning talab va ehtiyojlari bilan ta'lim beruvchilarning faolligi ta'lim-tarbiya ishini harakatlantiruvchi kuchlar hisoblanadi.

C) Jamiyatning talab bilan tahsil oluvchilarning real imkoniyatlari orasidagi ziddiyatlar ta'lim-tarbiya ishini harakatlantiruvchi kuchlar hisoblanadi.

D) Fan texnika va ishlab chiqarish texnologiyalari ta'lim-tarbiya ishini harakatlantiruvchi kuchlar hisoblanadi.

36. "Dars"tushunchasiga qaysi javobda to'g'ri izoh berilgan?

A) Dars deb– uzluksiz ta'lim tarbiya jarayonini - o'zining vaqtini, mazmuni va ishtirokchilari bilan chegaralangan bir qismidir.

B) Dars deb– uzluksiz ta’lim tarbiya jarayonini ta’lim beruvchilari va tahlil oluvchilarining o‘zaro hamkorligiga aytildi.

C) Dars deb– uzluksiz ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etishga aytildi.

D) Dars deb– uzluksiz ta’lim tarbiya jarayonida ta’lim oluvchilarga ta’lim berishga aytildi.

47. “Didaktika”qanday masalalarini hal qiladi?

A) Didaktika “Pedagogika”fanining amaliy qismi bo‘lib, ta’lim tarbiya qonuniyatlarini o‘rgatadi.

B) Didaktika “Pedagogika”fanining nazariy qismi bo‘lib, faqat ta’lim tarbiya metodlarini o‘rgatadi.

C) Didaktika “Pedagogika”fanining nazariy qismi bo‘lib, ta’lim tarbiya bo‘yicha amaliy tavsiyalar berishni o‘rgatadi.

D) Didaktika ta’lim -tarbiya qonuniyatlarini o‘rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston STRATEGIYaSI . Toshkent: O‘zbekiston. – 2022y. 458 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild / Sh.M. Mirziyoyev.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020. – 400b.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 488 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 592 b.

II. Normativ - huquqiy hujjatlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
- 2.O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni.04.09.2015y
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmish tarzini keng tadbiq etish va ommoviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5077667>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakillantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5279-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5713331>
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli qarori
- 6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “2025-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ-5281-son qarori. <https://lex.uz/docs/5713410>

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagи “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislami qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-son qarori // <https://lex.uz/docs/-3863838>

III. Maxsus adabiyotlar

- 1.Abdukarimov H. Umumiy pedagogika. -Toshkent: Yangi asr avlodи., 2012.-110 b.
- 2.Avliyoqulov N.X. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. –Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 69 b.
- 3.Akramov A.K. O‘zberkistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi. T., 1997y.
- 4.Abdumalikov R. O‘zberkistonda jismoniy madaniyat va sport tarixinio‘rganish masalalari.T., Bilim, 1994y.
- 5.A.Akmalov Sport, malaka oshirish ta’limida innovatsion va interfaol texnologiyalar . uslubiy qo‘llanma., “Umid Design” T.: 2022y.70 b.
- 6.Djurayev R. X., Tolipov O‘. Q. va boshq. Pedagogik atamalar lug‘ati. – Toshkent: O‘zPFITI. - 2008. 125 b.
- 7.Zunnunov A. Pedagogika tarixi., Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik, T.: Sharq, 204y. 335b.
- 8.Zunnunov A. va boshqalar O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. –Toshkent: Fan, 1996. – 350 b
- 9.Salamov R. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati, Darslik – Toshkent, 2015.y.
- 10.Munavvarov A.Q. taxriri ostida .”Pedagogika” darslik - T.: O‘qituvchi, 1996y .- 200b.
- 11.Yo‘ldoshyev J.G‘. Xorijda ta’lim -Toshkent: Sharq, 1995.-92 b.
12. Toxtaxodjayeva M., Nishonova S., Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika. – Toshkent, O‘qituvchi - 2006.- 345
13. Pod redaksiey P.I. Pidkasistogo. “Pedagogika”, uchebnik- M.: 2004. 604.str.
- 14.Xoshimov K., Ochilov., O‘zbek pedagogikasi antalogiyasi.T.: “O‘qituvchi” 1995y. 460b.
- 15.Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.- 352 b.
- 16.Eshnazarov J. Jismoniy tarbiya tarixi va boshqarish . T., 2008y.
- 17.Belousova V.V., Resheten N.N., taxriri ostida Pedagogika, Fizkultura institutlari uchun darslik, T.: O‘qituvchi 1983y. 302b.

18. Xo'jaev F. . O'zberkistonda jismoniy tarbiya. T., O'qituvchi, 1997y.

IV. Elektron ta'lif resurslari

1. www.minsport.uz
2. www.uzedu.uz
3. www.ictcouncil.gov.uz.
4. www.uz-djti.uz
5. www.sportedu.uz
6. www.olympic.uz
7. www.ziynet.uz.
8. www.infocom.uz.
9. www.edu.uz